



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING QARORI

2022 y. “18” fevral № 9

Uy xo‘jaliklarida tanlanma kuzatuvlarni o‘tkazish bo‘yicha intervyuyerlar uchun qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020- yil 3- avgustdagi PQ- 4796- son qaroriga muvofiq, uy xo‘jaliklarida tanlanma kuzatuvlarni tashkil etish uslubiya-tini yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. “Uy xo‘jaliklarida tanlanma kuzatuvlarni o‘tkazish bo‘yicha intervyuyerlar uchun qo‘llanma” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 26- fevraldagi “Uy xo‘jaliklarida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazish bo‘yicha intervyuyerlar uchun qo‘llanmani tasdiqlash haqida”gi 3- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

**Uy xo'jaliklarida tanlanma kuzatuvlar o'tkazish
bo'yicha intervyuyerlar uchun
qo'llanma**

O'zbekiston Respublikasi aholisining farovonligi darajasini o'rganish maqsadida Davlat statistika organlari tomonidan uy xo'jaliklarida tanlanma usulda kuzatuvlar o'tkaziladi.

Jahon Bankining tavsiyalari hamda texnik ko'magi asosida BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEIK) tomonidan ishlab chiqilgan va Yevropa Ittifoqiga kiruvchi qator mamlakatlarda qo'llaniladigan, uy xo'jaliklarida tanlanma kuzatuvlar o'tkazish bo'yicha takomillashtirilgan uslubiyatdan foydalaniladi.

Mazkur qo'llanmada Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va ulardan uy xo'jaliklari hamda alohida shaxslar tomonidan foydalanish bo'yicha qo'llanmasiga (2014- yildagi nashri), BMT Butunjahon turizm tashkilotining (BMT BTT) Turizm statistikasi bo'yicha 2008- yilda tayyorlangan xalqaro tavsiyalariga asoslangan ta'riflar va tavsiyalar keltirilgan.

Uy xo'jaliklarida o'tkazilgan kuzatuvlar natijalari asosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning aholi turmush darajasiga ta'sirini o'rganish va mamlakat aholisi farovonligini yanada yuksaltirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun ma'lumotlar shakllantiriladi. Shuningdek, kuzatuvlar natijalari, aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasi ko'rsatkichlarini, iste'mol narxlari indeksini, milliy hisoblar tizimida uy xo'jaliklari sektori hisoblarini tuzishda va boshqa iqtisodiy-statistika hisob-kitoblarida foydalaniladi.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish uslubiyatini, kuzatuv so'rovnomalarini va tanlov uslubini ishlab chiqish hamda takomillashtirish Davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Hududiy statistika boshqarmalari uy xo'jaliklari tanlovini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlash, so'rovnomalarni va boshqa so'rov

hujjatlari bo'yicha birlamchi statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularning nazorati va tahlil qilish ishlarini amalga oshiradilar.

2. Mazkur qo'llanmada quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflar qo'llaniladi:

uy xo'jaligi – ma'lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlari yoki mol-mulkini to'liq yoki qisman birlashtirgan hamda ayrim turdagi tovarlar va xizmatlarni (asosan uy-joy xizmatlari va oziq-ovqat mahsulotlarini) birgalikda iste'mol qiladigan shaxslar guruhi;

so'rovnoma – kuzatuv davomida uy xo'jaligi (uning a'zosi) to'g'risida ma'lumot olish maqsadida aniq shakllantirilgan savollar ro'yxatidan iborat bo'lgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan hujjat;

supervayzer – kuzatuv jarayonida barcha kerakli materiallar va ko'rsatmalar beradigan, ishingizni kuzatib boradigan hamda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda yordam beradigan boshqarmadagi birlashtirilgan xodim (bo'lim boshlig'i, bosh mutaxassis, yetakchi mutaxassis);

intervyuyer – kuzatuv jarayonida tanlovga tushgan uy xo'jaliklari a'zolari bilan savol-javob (intervyu) o'tkazadigan hududiy statistika boshqarmasi xodimi;

uy xo'jaligi boshlig'i – uy xo'jaligi a'zolarining ixtiyoriga ko'ra aniqlanadi. Bunda, ushbu uy xo'jaligining yosh jihatdan eng katta bo'lgan vakili va xo'jalikni boshqaradigan yoki ko'proq daromad keltiruvchi a'zosi uy xo'jaligi boshlig'i bo'lishi mumkin;

respondent – kuzatuv o'tkaziladigan uy xo'jaligining intervyu savollariga javob beradigan a'zosi. Respondent uy xo'jaligining boshlig'i yoki ushbu uy xo'jaligi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan boshqa a'zosi bo'lishi mumkin;

uy xo'jaligining band (ishlovchi) a'zolari – bir haftaga teng ma'lum bir qisqa vaqt davomida, yollanma (haq to'lanadigan) xodim sifatida yoki mustaqil ravishda band bo'lgan, uy xo'jaligining 16 va undan katta yoshdagi a'zolari;

yollanma (haq to'lanadigan) xodimlar – oylik maosh, mukofotlar, ustamalar va h.k. yoki natura (mahsulot yoki xizmat) shaklidagi, shuningdek, mehnatga haq to'lashning yashirin (ya'ni, ish beruvchining birlamchi va buxgalteriya hisob-kitoblarida aks ettirilmagan to'lovlari) qismini qo'shgan holda, haq (rag'batlantirish) olish nazarda tutilgan holda yollanib ishlayotgan shaxslar;

mustaqil ravishda band bo'lish – rag'batlantirish miqdori mustaqil ravishda tashkil etilgan mehnat jarayoniga uy xo'jaligi a'zolarining jalb qilinishi natijasida olingan daromadga bevosita bog'liq bo'lgan bandlik;

uy xo'jaligi pul xarajatlari iste'mol va noiste'mol xarajatlardan tarkib topadi. O'z navbatida, uy xo'jaligining iste'mol xarajatlari, iste'mol tovarlari va xizmatlarini xarid qilishga (ya'ni, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga, uydan

tashqarida ovqatlanishga, spirtli va spirtsiz ichimliklar, tamaki mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlar sotib olishga va pullik xizmatlarga) yo'naltirilgan xarajatlarini o'z ichiga oladi. Noiste'mol xarajatlarga soliqlar, yig'imlar, to'lovlar va iste'mol bilan bog'liq bo'lmagan boshqa turdagi xarajatlar kiradi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish va tarqatish jarayonlarida qo'llanadigan vositalar, usullari hamda mazkur jarayon va usullarni amalga oshirish yo'llari;

ichki turizm – ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo'lgan tashrif buyuruvchining ushbu mamlakat doirasidagi ichki yoki chiquvchi sayyohlik safariga doir faoliyatini o'z ichiga oladi.

2- bob. Kuzatuv o'tkazish instrumentariysi

3. Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish jarayonida quyidagi hujjatlar va so'rovnomalardan foydalaniladi:

- a) uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish rejasi;
- b) uy xo'jaligi bilan tuziladigan shartnoma shakli;
- c) yakka tartibda o'tkaziladigan so'rovnomasi;
- d) uy xo'jaligi so'rovnomasi;
- e) ichki turizm va aholining jismoniy faolligi kuzatuv so'rovnomasi;
- f) AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va uy xo'jaligi a'zolarining AKT vositalaridan foydalanish ko'lam so'rovnomasi.

4. Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish reja jadvalini hududiy bo'lim boshliqlari intervyuyerlar bilan kelishgan holda tuzadi va boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

5. Zarur hollarda, kuzatuv o'tkazish uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan boshqa hujjatlar va so'rovnomalardan foydalanish mumkin.

3- bob. Tanlov tartibi va bosqichlari

6. Kuzatuv O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida) o'tkaziladi. Har yillik tanlanma hajmi jami turkumning 0,2 foizini tashkil etadi. Tanlanma hajmini shakllantirishda, kuzatuv natijasida olinadigan ma'lumotlarning aniqlik darajasi, shuningdek, sarflanadigan mablag'larning samarali ishlatilishi hisobga olinadi.

7. Tanlov uslubiyaiga ko'ra, chorak bo'yicha olingan kuzatuv natijalari respublika bo'yicha ma'lumotlarning representativligini ta'minlaydi. Respublika

hududlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash uchun yillik ma'lumotlardan foydalanish lozim.

8. Uy xo'jaliklari tanlovi har bir hududda yashovchi aholi sonidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Tanlovni amalga oshirishdan avval tanlov birligi hisoblangan uy xo'jaliklari soni respublikaning hududlari kesimida oldindan taqsimlanadi. Har bir hudud bo'yicha uy xo'jaliklari tanlovi, shahar va qishloq joylari kesimida amalga oshiriladi.

9. Uy xo'jaliklarining tanlovi ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda mahalla va qishloqlar tanlab olinadi hamda bu jarayon har olti oyda, ya'ni bir yilda ikki marta takrorlanadi. Har bir mahalla va qishloqning tanlovga tushish ehtimoli, ularda mavjud bo'lgan uy xo'jaliklari (yoki aholi) soniga bog'liq.

10. Tanlovning birinchi bosqichini amalga oshirishdan avval borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan tumanlar, qishloq mahallalari tanlov ro'yxatidan chiqariladi. Ushbu hududlarni ro'yxatdan chiqarish uchun mezon bo'lib, ularda yashovchi aholi sonining respublika umumiy aholi sonidagi ulushi hisoblanadi.

11. Uy xo'jaliklari tanlovi tanlovning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladi. Tanlab olingan mahalla va qishloqlar bo'yicha barcha uy xo'jaliklarining ro'yxatini (uy xo'jaligi boshlig'ining familiyasi, ismi, sharifi va manzili) hududiy statistika boshqarmalari belgilangan tartibda, elektron ko'rinishda shakllantiradilar. Davlat statistika qo'mitasi ushbu ro'yxat asosida uy xo'jaliklari tanlovining ikkinchi bosqichini amalga oshiradi va kelgusi olti oy davomida kuzatuv o'tkazishda foydalaniladigan uy xo'jaliklari ro'yxatini shakllantiradi. Tanlovning barcha bosqichlari Davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

4- bob. Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish tartibi va intervyuyerning majburiyatlari

12. Intervyuyer, uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazishdan avval tayyorgarlikdan o'tgan va uning kuzatuv o'tkazish bo'yicha olgan bilimlari hududiy statistika boshqarmasining Turmush darajasi statistikasi va uy xo'jaliklari kuzatuvlari bo'limi boshlig'i tomonidan sinovdan o'tkazilgan bo'lishi shart. Shuningdek, intervyuyer kuzatuv jarayonida foydalaniladigan barcha hujjatlar, so'rovnomalar, ushbu qo'llanma bilan tanishgan bo'lishi lozim. Ushbu talablar bajarilmagan taqdirda, intervyuyerning kuzatuvda ishtirok etishi man etiladi.

13. Intervyuyer so'rovnomada muhim rol o'ynaydi. Yuqori sifatli ma'lumotlarni olinishi intervyuyerlarga bog'liq. Barcha intervyuyerlar bir xil tartibga rioya qilishlari uchun, qo'llanmada keltirilgan barcha ko'rsatmalarga amal qilishlari kerak.

14. Uy xo‘jaligining kattaligiga qarab kuniga kamida ikkita uy xo‘jaligida so‘rov o‘tkazilishi kerak. Intervyuyer mahallada tanlovga tushgan uy xo‘jaliklari so‘rovnomasiga mas‘ul. Barcha ma‘lumotlarni o‘z vaqtida olishi uchun intervyuyer o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlashi va rejalashtirishi lozim.

15. Kuzatuv jarayonida intervyuyer quyidagilarga amal qilishi lozim:

elektron qurilma planshet, o‘rnatilgan SIM-karta, dasturiy ta‘minot, zaryadlovchi qurilma, intervyuyerlar uchun qo‘llanma hamda yozish uchun ruchka va bloknot bo‘lishi;

mahallaga uy xo‘jaligi kuzatuviga chiqishdan oldin, har kuni ertalab planshet 100 % quvvatga ega ekanligiga ishonch hosil qilish, o‘zi bilan birga zaryadlovchi qurilma olib yurishi zarur;

planshetni qo‘ng‘iroq qilish uchun ishlatish mumkin emas;

kuzatuv davomida planshetni “Parvoz” rejimiga qo‘yish, bu quvvatni tejash orqali qurilmani uzoq vaqt ishlashiga yordam beradi;

kuzatuv o‘tkazish rejasiga muvofiq, tanlov ro‘yxatiga kiritilgan uy xo‘jaliklariga tashrif buyurish va kuzatuv o‘tkazish;

tanlovga tushgan uy xo‘jaligiga borganda, so‘raluvchi o‘zini qulay his qilishi uchun, bir necha yaxshi so‘zlar bilan suhbatdoshini javob berish kayfiyatiga olib kelish. Suhbatni kulgu va “Xayrli kun” so‘zlari bilan boshlash va o‘zini tanishtirish bilan davom ettirish;

uy xo‘jaligi a‘zolarini hurmat qilish, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lish va so‘rov (intervyu)ning ixtiyoriyligini ta‘minlash;

suhbat boshida uy xo‘jaligi a‘zosining kelgusi 2-3 soat ichida biron bir ishi bor yo‘qligini aniqlab olish va suhbat 2-3 soat vaqt davom etishi bo‘yicha ogohlantirish;

ijobiy yondashuvga ega bo‘lish, ya‘ni suhbatni “Siz juda ham bandmisiz?” kabi savollar ishlatmaslik, bu savollar boshlanmasdan oldin rad javobini olib keladi. Aksincha, javob beruvchidan “Sizdan bir necha savol so‘ramoqchiman” yoki “Siz bilan birga bir necha daqiqa suhbatlashmoqchiman” kabi takliflar bilan murojaat qilish;

kuzatuvning maqsadi va vazifalarini uy xo‘jaligi a‘zolariga aniq tushuntirish hamda so‘rov (intervyu)ni xolis va beg‘araz o‘tkazish;

uy xo‘jaligi vakili bilan yolg‘iz so‘rovni o‘tkazish. Uchinchi shaxs, ya‘ni qo‘shnilar yoki uy xo‘jaligi a‘zolari bo‘lmagan boshqa shaxslar, suhbat davomida respondentdan ochiq va to‘g‘ri javob olishga to‘sqinlik qilishi mumkinligini inobatga olish;

uy xo‘jaligi ma‘lumotlarini to‘liq va to‘g‘ri bo‘lishini ta‘minlash;

suhbat davomida mobil telefonga kelgan shaxsiy qo'ng'iroqlarni qabul qilmaslik. Agar qo'ng'iroq qilish zarur bo'lsa, suhbatdoshidan kechirim so'rash va suhbatni iloji boricha qisqa davom ettirish;

savol berganda betaraflikni saqlab qolish, javob beradiganlarning javoblarini "to'g'ri" yoki "noto'g'ri", ya'ni tasdiqlash yoki rad etishga harakat qilmaslik;

so'rovnomalarni faqat elektron qurilma (planshet)lar orqali to'ldirish, uning sifatini respondent ishtirokida tekshirish, to'ldirilgan so'rovnomaga respondentning ruxsatisiz tuzatish va o'zgartirishlar kiritmaslik;

uy xo'jaligi kuzatuvining so'rov ma'lumotlarini va boshqa hujjatlarini qalbakilashtirishga yo'l qo'ymaslik;

intervyu o'tkazishda savollar tartibini o'zgartirmaslik, savollarni respondentga shoshmasdan o'qib eshittirish, savol respondentga tushunarsiz bo'lgan taqdirda, savolni takroran o'qib berish, savollarni javobsiz qoldirmaslik va intervyuyer uchun berilgan qoidalarga amal qilish;

so'rovnomalarni to'ldirish jarayonida qiyinchilik va muammolar yuzaga kelganda, shuningdek, respondent ayrim savollarga javob berishni rad etgan hollarda, bular to'g'risidagi ma'lumotlarni supervayzer bilan maslahatlashish;

uy xo'jaligidan olingan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

uy xo'jaligi tomonidan shartnoma talablari sifatli va o'z vaqtida bajarilgan taqdirda, belgilangan miqdordagi bir martalik pul mukofoti topshirilishini ta'minlash;

taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek, uy xo'jaligi a'zolarining kuzatuvda ishtirok etish uchun sarflagan vaqtlari uchun minnatdorchilik bildirish.

16. Kuzatuvda ishtirok etish uchun rozilik bildirgan respondentlar soni, ular tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarning sifati ko'p jihatdan intervyuyer tomonidan qo'llanilayotgan muloqot usuliga va respondent bilan o'zaro hamkorlik qila olishiga, shuningdek, o'tkazilayotgan so'rov maqsadini intervyuyer qay darajada yaxshi tushuntira olishiga bog'liq.

17. Intervyuyer uy xo'jaligiga qilgan tashrifida savollarga javob olish uchun respondentni aniqlab oladi va unga kuzatuvining maqsadi, vazifalari va mazkur uy xo'jaligi kuzatuvning tanlov rejasiga aholining turli daromad darajasiga ega bo'lgan barcha qatlamlarini qamrab olinishini ta'minlovchi, tanlovni avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshiruvchi maxsus dastur asosida kiritilganligi to'g'risida ma'lumot beradi.

18. Respondent kuzatuvda ishtirok etishga rozilik bergandan so'ng, intervyuyer hududiy statistika boshqarmasi bilan respondent o'rtasida, belgilangan

tartibda ikki tomonlama shartnomani rasmiylashtiradi, respondentga shartnoma talablari va tomonlarning majburiyatlarini tushuntiradi.

19. Agar uy xo'jaligi kuzatuvda ishtirok etishni rad etsa, kuzatuvni davom ettirish uchun belgilangan zaxira ro'yxati bo'yicha navbatdagi uy xo'jaligiga tashrif buyuriladi hamda supervayzerga bu haqda xabar beriladi.

20. Agar uy xo'jaligi kuzatuv jarayonida kuzatuvda ishtirok etishdan bosh tortsa, "Yakka tartibda o'tkaziladigan so'rovnoma"ning pasport bo'limida 1-9 savollari to'liq to'ldiriladi, shuningdek, hududiy statistika boshqarmasi va respondent o'rtasida rasmiylashtirilgan ikki tomonlama shartnoma bekor qilinadi hamda kuzatuv yakunlanadi.

5- bob. Yakuniy qoidalar

21. Kuzatuv dasturida belgilangan elektron qurilma (planshet)lar orqali so'rov yakunlangandan so'ng, intervyuyer ma'lumotlarni asosiy serverga yuborishidan oldin qayta ko'rib chiqiladi, keyin asosiy serverga yuboriladi.

22. So'rovnoma shakllarida kichik xatoliklarni tuzatish mumkin, masalan, nomlar va kiritish vaqtidagi xatoliklar. Lekin qolgan o'zgartirishlar respondentdan so'ramay turib o'zgartirilishi mumkin emas.

23. Supervayzer, intervyuyer bilan birgalikda asosiy serverga yuborilgan ma'lumotlarni arifmetik va mantiqiy xatoliklar yo'qligini tekshiradi va tahlil qiladi.

24. Intervyuyer ma'lumotlarni tekshirishni tugatganidan so'ng, elektron qurilma planshetni hududiy statistika boshqarmasining mas'ul xodimiga topshiradi. Mas'ul xodim elektron qurilma planshetni ishlayotganini ko'rib qabul qilib oladi va keyingi so'rov boshlangunga qadar boshqarmada, bo'lim seyfidan saqlanadi.

25. Hududiy statistika boshqarmasining mas'ul xodimlari yoki supervayzer, kuzatuv jarayonida olinayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligi va sifatini ta'minlash maqsadida, muntazam ravishda uy xo'jaliklariga tashrif buyurgan holda intervyuyer so'rovlarini kuzatish, savollarni berish usullarini baholash hamda nazorat ishlarini olib boradilar.

26. Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish qoida va tartiblarini buzgan intervyuyerlar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Yakka tartibda o‘tkaziladigan so‘rovnomaning to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Yakka tartibda o‘tkaziladigan so‘rovnoma (So‘rovnoma)da, uy xo‘jaligi tarkibi, migratsiya, ta‘lim darajasi va ta‘limga qilingan xarajatlari, sog‘liqni saqlash, bandlik, jamg‘arma va kreditlar, ijtimoiy nafaqalar to‘g‘risida ma‘lumotlar shakllanadi.

So‘rovnomaning maqsadi odatda, uy xo‘jaligida doimiy ravishda yashaydigan har bir a‘zosi haqida ma‘lumot to‘plashdan iborat. Shuningdek, vaqtinchalik yo‘q bo‘lgan muhojirlar va boshqa uy xo‘jaligi a‘zolari ham qo‘shilishi lozim. So‘rovnoma quyidagi 7 bo‘limdan iborat:

- 1-bo‘lim – Reyestr;
- 2-bo‘lim – Ko‘chib kelgan va ko‘chib ketgan shaxslar to‘g‘risida ma‘lumot (MIGRATSIYA);
- 3-bo‘lim – Ta‘lim;
- 4-bo‘lim – Sog‘liq;
- 5-bo‘lim – Bandlik;
- 6-bo‘lim – Jamg‘armalar va kreditlar;
- 7-bo‘lim – Ijtimoiy nafaqalar.

So‘rovnoma pasportini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

So‘rovnoma pasporti bo‘limining maqsadi so‘rovda qatnashgan uy xo‘jaligi va javob beruvchi ya‘ni respondent haqida asosiy ma‘lumotlarni yig‘ishdan iborat.

1-savol. Intervyuyerning shaxsiy kod raqami kiritiladi va keyingi savolga o‘tish uchun ekranni o‘ngdan chapga siljitish lozim.

2-savol. Uy xo‘jaligining GPS koordinatalarini o‘rnatib olinadi.

3-savol. Kuzatuv o‘tkazilayotgan viloyat, tuman yoki shahar nomini, so‘ng mahalla nomini tanlab olinadi.

4-savol. Uy xo‘jaligi kodi kiritiladi.


5-savol. Tashrif natijalari xos raqamlari 01-Intervyu boshlangan vaqti ko‘rsatiladi yoki 02-Intervyu o‘tkazilmadi (manzilda respondent topilmadi, sababi) belgilanadi. Uy xo‘jaligi kuzatuv mohiyati bo‘yicha tushuntirish olib boriladi.

6-savol. Respondentning familiyasi, ismi va sharifi yoziladi.

7-savol. Respondentning telefon raqami kiritiladi, telefon raqamini olish zarur (ixtiyoriy, agar javob berilmagan bo'lsa yoki rad etilsa).

8-savolda loyihaning maqsadi va so'rov o'tkazilishining hech qanday xavfi yo'qligini tushuntirilib, so'ngra javob beruvchi so'rovda qatnashishga rozilik bildirish yoki bildirmasligi ko'rsatiladi. Ijobiy javobni olgandan so'ng, keyingi bo'limga (1-Reyestr) o'tiladi. Rad javobini bildirgan holatlarda 9-savolga o'tiladi.

9-savoda rad etilishi sababini aniqlab, so'rovni yakunlash lozim. So'ngra bu uy xo'jaligini ro'yxatdan chiqarib tashlab zaxira ro'yxatidan boshqa uy xo'jaligi tanlanadi. Bu haqida supervayzerga xabar beriladi. So'rovni saqlab olib, internetga ulanish imkoniyati bo'lsa, uni asosiy serverga yuborish kerak.



1. Uy xo'jaligi reyestri bo'limini to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar

Ushbu bo'lim uy xo'jaliklarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilash bilan boshlanadi, respondentdan barcha uy xo'jaligi a'zolarini, shu jumladan, eng kichik yoshdagilarni, shuningdek, harbiy xizmatga ketganlar yoki qamoqxonada jazo muddatini o'tayotganlar, pul ishlashga, mavsumiy ishlarga, o'qishga, davolanishga ketganlar va hokazolarni kiritgan holda qo'shib to'ldiriladi. Bundan tashqari, agar ushbu manzilda doimiy yashaydiganlardan biror kim uy egasining qarindoshi bo'lmasada, ularni ham umumiy hisobga qo'shiladi. Elektron qurilma planshetda o'rnatilgan ma'lumotlarni to'plash dasturi faqat siz bu kiritgan uy xo'jaliklari a'zolarining soni bo'yicha savollar beradi. Agar javob beradigan shaxs, kimdir qolib ketganini eslasa, bunday holatlarda bu savolni yana qaytib to'ldiriladi (bu vaqtni yo'qotishga olib keladi).

Ushbu bo'limning 1-savolida uy xo'jaliklari a'zolarining aniq soni kiritiladi.

1-4 savollarda uy xo‘jaligi har bir a‘zolarining familiyasi, ismi va sharifi, jinsi, tug‘ilgan sanasi hamda yoshi kiritiladi.


Uy xo‘jaligi a‘zolarining yozish tartibi quyidagicha kiritiladi:

Birinchisi uy xo‘jaligi boshlig‘i bo‘lishi kerak, hatto u respondent bo‘lmasa ham;

Ikkinchida oilada boshliqning ota-onasi, agar ular birga yashasa va ovqatlanasa;

Keyin uyda birga yashaydigan va ovqatlanadigan yaqin oila a‘zolari (turmush o‘rtog‘i va eng kattasidan boshlab yoshigacha bolalari);

Oxirida uyda birga yashaydigan va ovqatlanadigan uy xo‘jaligi boshlig‘i bilan bog‘liq boshqa shaxslar.



5-savolda uy xo‘jaligi boshlig‘iga kim bo‘lishi qarindoshlik darajasi (er, xotin, o‘g‘il, qiz, kuyov, kelin, qaynola, qaynona, jiyan, boshqa qarindoshlar, qarindosh bo‘lmaganlar va hokazolar) kiritiladi.

6-savolda uy xo‘jaligi a‘zolarining ona tili va qo‘shimcha ravishda o‘rgangan tillari haqida ma‘lumot kiritiladi.

7-10-savollarda 15 yoshga to‘lgan va undan katta yoshdagi uy xo‘jaligi a‘zolarining oilaviy holati, qachon birinchi marta turmush qurganligi, ushbu uy xo‘jaligida turmush o‘rtog‘i birga yashaydimi (bunda nikohi, turmush qurganligi va hokazolar) haqidagi ma‘lumotlar so‘raladi.

11-11a-savollar 7 yoshdan kichik uy xo‘jaligi a‘zolari haqida bo‘lib, unda bola parvarishi bilan ota-onasidan tashqari o‘zga shaxslar shug‘ullanganligi so‘raladi.

12-savolda oxirgi bir oyda necha hafta doimiy uyda bo‘lganligi haqida ma‘lumot so‘raladi.

13-14-savollarda uy xo‘jaligi a‘zolarining shaxsiy uyali telefoni haqida ma’lumotlar aniqlanib, bunda telefon raqamini kiritish maqsadga muvofiqdir.

The figure displays four sequential screenshots of the 'UZB_HBS_2022H1' application interface, illustrating the user's journey through various screens:

- Screen 1 (Leftmost):** Shows a list of questions under the heading '(M1) Хўжалик реестри > Оила аъзоларининг асосий маълумотлари > 1'. The first question is '* 5 Vozosov Fatullo uy xўjaligini boshligiga kim buladi?'. Below it are radio button options: 'Эри / хотини', 'Ўғли, қизи', 'Кўёв / келин', 'Ота, она', 'Қайнота / қайнона', 'Опа-сингил/ака-ука', 'Невара', 'Звара', 'Буви / бува', 'Жиян', 'Бошқа қариндош', and 'Қариндош эмас'.
- Screen 2:** Shows the same list of questions, but the second question is selected: '* 7 Vozosov Fatulloning oilaviy xolati'. The radio button options are: 'Расмий никоҳ', 'Шаръий никоҳ', 'Ажрашган', 'Бирга яшайди (никоҳсиз)', 'Алоҳида яшайди', 'Бева', 'Турмуш қурмаган', and 'Бошқа'.
- Screen 3:** Displays a date selection screen titled 'Выберете дату' (Select a date). It shows a calendar view with the year 1993 selected. Below the calendar are buttons for 'Отмена' (Cancel) and 'OK'.
- Screen 4 (Rightmost):** Shows a numeric keypad interface with digits 1 through 9, 0, and a decimal point. There are also buttons for 'OK' and a back arrow.

2. Migratsiya bo'limini to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar

Ushbu bo‘lim 2 qismdan iborat bo‘lib, “Migratsiya A” bo‘limida respondentdan ayni vaqtdagi manziliga boshqa hududdan ko‘chib kelganmi yoki yo‘qmi, deb so‘raladi va “Migratsiya B” bo‘limida chet elda yashayotgan yoki ishlayotgan uy xo‘jaligi a‘zolari haqida ma’lumot beriladi.


“Migratsiya A” bo‘limida O‘zbekiston Respublikasining boshqa viloyatidan yoki boshqa davlatdan hozirgi yashash joyiga ko‘chishiga oid birinchi savolga “Ha” deb javob berilganida, javob beruvchi shaxs qaysi mamlakatdan kelganini aniqlab va ochilgan ro‘yxatda tegishli mamlakat belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi ro‘yxatda birinchi bo‘lib, qo‘shni davlatlar, qolgan mamlakatlar esa alifbo tartibida joylashtiriladi. O‘zbekistonga nisbatan, ilgari yashagan viloyat va tumanni ko‘rsatish lozim. So‘ngra ko‘chishning sababi va ko‘chgan yili kiritiladi. Bu savollar boshqa uy xo‘jaligi a‘zolari uchun ham takrorlanadi.

“Migratsiya B” bo‘limida chet elda yashayotgan yoki ishlayotgan uy xo‘jaligi a‘zolari haqida ma’lumot beriladi. Birinchi 4 ta savolga respondentdan oila a‘zolari uydin chiqib, qaytib kelishni rejalashtirganmi va qachon kelishi kerakligini so‘rash muhim. Shundan so‘ng, u yashayotgan yoki ishlayotgan mamlakat tanlanadi.

Oxirgi bir oy mobaynida uy xo‘jaligiga pul jo‘natish haqida, ushbu bo‘limning 6-savolida “Ha” deb javob berilsa, 7-savolda yuborilgan summa kiritiladi. Odatda odamlar AQSH dollarida pul yuboradi, uni kurs bo‘yicha hisoblab o‘zbek so‘mida kiritish lozim.

So'ngra, respondentdan bu mablag'lar asosan nima uchun sarflangani haqida ma'lumot olinadi, bitta javobni tanlab (sarflangan eng katta miqdordagi mablag'ni), keyin pulni yuborish usuli ko'rsatiladi. Agar pul to'g'ridan-to'g'ri mahalliy bank hisob raqamiga o'tkazilgan bo'lsa O'zbekiston bo'yicha bank operatsiyasi tanlanadi, Xalqaro pul o'tkazmalari xizmati orqali bo'lsa, maxsus kod orqali rasmiy pul o'tkazish tizimi tanlanadi.

Hozirgi vaqtda boshqa mamlakatda ishlayotgan bo'lsa, u holda unda rasmiy shartnoma asosida yoki tashqi migratsiya agentligi orqali ketganligiga aniqlik kiritiladi va uy xo'jaligining keyingi a'zosiga o'tiladi.



3. Ta'lim bo'limini to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar

Ushbu bo'limda har bir uy xo'jaligi a'zosining ega bo'lgan ta'lim darajasi haqida ma'lumot so'raladi, agar uy xo'jaligi a'zolaridan biri o'qiyotgan bo'lsa, so'nggi o'quv yilida ta'lim bilan bog'liq xarajatlar, shu jumladan, pul, natura yoki xizmat shaklidagi xarajatlar va xususiy repetitorlik uchun sarflangan xarajatlar narxi aniqlanadi.

1998- yilgacha universitet yoki institutda 5 yil o'qigan kishilar uchun oliy ta'lim (1-5 yil) yozilib, 1998- yildan so'ng bakalavr yoki magistr diplomini olgan bo'lsa, bakalavr yoki magistr darajasi belgilanadi.

Bugungi kunda o'qiyotgan (maktab yoki oliy o'quv yurtlarida) uy xo'jaligi a'zolari uchun so'nggi o'quv yili mobaynida uy xo'jaligi a'zosining ta'lim uchun sarflangan mablag'i haqidagi ma'lumotlarni ajratish imkoni bo'lmasa, u holda jami mablag'ni boshqa xarajatlarga kiritiladi. Agarda hech qanday pul sarf qilinmagan bo'lsa, unda bo'sh qoldiriladi yoki 0 raqami kiritiladi.

10:15 🔍 📄 📱 🌐 UZB_HBS_2022H1 🔍 📄 📱 🌐 (M3) ТАЪЛИМ - (3) ТАЪЛИМ - 5 Савол 10 ёш ва ундан катта ёшдаги шахсларга берилади. 1 <i>Shirinova Shaxinabonli</i>нинг таълим даражаси (Муваффақиятли тугатган юқори таълим даражаси назарда тутилди) ☐ Ҳеч қандай маълумотга эга эмас ☐ Үқшш ва ёишши билади, аммо маълумотга эга эмас ☐ Мақтабгача таълим ☒ Бошлангич таълим ☐ Тўлиқсиз ўрта таълим 9(8) синф ☐ Тўлиқ ўрта таълим 11(10) синф ☐ Ўрта махсус таълим ☐ Бакалаврият: 1-4 йил ☐ Олий таълим: 1-5 йил ☐ Магистратура: 1-2 йил ☐ Олий таълимдан кейинги таълим ☐ Фан номзоди даражасига эга (PhD) ☐ Фан доктори даражасига эга (DSc)	10:15 🔍 📄 📱 🌐 UZB_HBS_2022H1 🔍 📄 📱 🌐 (M3) ТАЪЛИМ - (3) ТАЪЛИМ - 5 3 <i>Shirinova Shaxinabonli</i> сўнгги ўқув йилида ўқув муассасасида ўқигани? ☒ Ҳа ☐ Йўқ	10:15 🔍 📄 📱 🌐 UZB_HBS_2022H1 🔍 📄 📱 🌐 (M3) ТАЪЛИМ - (3) ТАЪЛИМ - 5 4 <i>Shirinova Shaxinabonli</i> сўнгги ўқув йилида қайси таълим муассасасида ўқиган? ☐ Ҳеч қандай ☐ Мақтабгача таълим ☐ Бошлангич таълим ☒ Тўлиқсиз ўрта таълим 9(8) синф ☐ Тўлиқ ўрта таълим 11(10) синф ☐ Ўрта махсус таълим ☐ Бакалаврият: 1-4 йил ☐ Олий таълим: 1-5 йил ☐ Магистратура: 1-2 йил ☐ Олий таълимдан кейинги таълим	10:15 🔍 📄 📱 🌐 UZB_HBS_2022H1 🔍 📄 📱 🌐 (M3) ТАЪЛИМ - (3) ТАЪЛИМ - 5 6 17 саволлар 6 ёшдан катта бўлган уй ҳўқалиги ёшлардан учун Сўнгги ўқув йилида уй ҳўқалигини <i>Shirinova Shaxinabonli</i>нинг ўқишига қанча маблағ сарфлади? (агар уй ҳўқалиги харажатларини бўғиб ёза олмасангиз, 13-савалда учумий миқдорини битта жавоб ёзинг) 6 Сўнги ўқув йилида оилангиз <i>Shirinova Shaxinabonli</i>нинг ўқишига қанча маблағ сарфлади,сўмда. Агар уй ҳўқалиги харажатларини жисоблаб бери олмасиз, жами харажатларини бошқа харажатларга киритинг. 7 Ўқшш учун тўлов _____ 8 Мақтаб формаси ва пойфазал сотиб олишга (фақат мақтаб учунчилар учун) 560 000 9 Дарсликлар ва бошқа ўқув материаллари 50 000 10 Ўқув куруллари (ручка, дафтар ва ҳўжазо) 100 000 11 Озиқ-овқат ва/ёки тузар жой учун 350 000 12 Мақтаб фонди, мақтаб биносини таъмирлаш, ўқув жўхўзаларини харид қилиш ва шу каби харажатлар _____
---	--	--	--

15-savolda so'nggi o'quv yili uchun uy xo'jaligi a'zolarining ta'limiga to'lovlarni natura yoki xizmat shaklida kiritiladi. Agar ta'limga to'lovlar natura shaklida bo'lsa, ish yoki sovg'aning qiymati baholanadi (gullar, shokoladlar, yoqilg'i, qurilish materiallari va h.k.). Shu bilan birga, ta'lim muassalariga xizmatlar orqali taqdim etilgan bo'lsa (ta'mirlash ishlari va boshqa xizmatlar), xizmat ko'rsatish soatlari ko'rsatiladi.

16 va 17-savollarda soʻnggi 1 oy davomida uy xoʻjaligi aʼzolarining xususiy repetitorlik xizmatidan foydalanishlari haqida maʼlumotlar soʻraladi. Undan keyin Soʻnggi 1 oy davomida repetitorlikka sarflangan mablagʻlar haqida maʼlumotlar kiritiladi, ushbu xizmatlar bepul koʻrsatilgan boʻlsa, 0 raqami kiritiladi.

4. Sogʻliq boʻlimini toʻldirish boʻyicha tushuntirishlar

Ushbu bo‘lim 3 qismdan iborat:

- A. Birlamchi yordam va ambulator xizmatlaridan foydalanish;
B. Bemorni statsionar davolash;
C. Sogʻliq muammolari.

A. Birlamchi yordam va ambulator xizmatlaridan foydalanish – uy xo‘jaligi a‘zolarining oxirgi 30 kun ichida salomatligi uchun ular tomonidan tibbiy xizmatlardan foydalanishi hamda tibbiy xizmatlarga sarflangan xarajatlar to‘g‘risida so‘raladi. Oxirgi 30 kun ichida tibbiy yordamga ehtiyoji bo‘la turib, murojaat qilmaganlik holatlari haqida so‘raladi. “Ha” deb javob berilgan bo‘lsa, u holda buning sababi so‘raladi va berilgan ro‘yxatdan tegishli javob tanlanadi.

B. Bemorni statsionar davolash – uy xo‘jaligi a‘zolari kasalxonada yotib davolanganligi, necha marta kasalxonaga yotqizilganligi, qancha vaqt kasalxonada davolangani, kasalxonada yotgan davrida sarflangan barcha xarajatlar kiritiladi.

Agar xarajatlarni bo‘lib yozish imkoni bo‘lmasa, xarajatlarning to‘liq miqdorini “h. boshqa to‘lovlar” ustuniga kiritish lozim. Agar ba’zi elementlar uchun to‘lovlar qilinmagan bo‘lsa, 0 raqami kiritiladi va barcha xarajatlar qiymati so‘mda yoziladi.

UZB_HBS_2022H1

(MOK) СОГЛАСИЕ - (4) СОГЛАСИЕ - А. Бергачи ёрдам ва амбулатория хизматларидан фойдаланиш. Русия берсангиз, энди Сиз ва уй-хўжалигингизнинг бошқа аъзоларининг саноатлиги, улар томонидан тиббий хизматлардан фойдаланишнинг қанча тиббий хизматларга харажатлар тўғрисидаги саволларни бошлайми. > 2

* 1 Bозорова Valida учун тиббий муассасадан олинган дори-дармондан ташқари охириги 30 кун ичида бирор дори сотиб олингидими?

☒ Ҳа
☐ Йўқ

UZB_HBS_2022H1

(MOK) СОГЛАСИЕ - (4) СОГЛАСИЕ - А. Бергачи ёрдам ва амбулатория хизматларидан фойдаланиш. Русия берсангиз, энди Сиз ва уй-хўжалигингизнинг бошқа аъзоларининг саноатлиги, улар томонидан тиббий хизматлардан фойдаланишнинг қанча тиббий хизматларга харажатлар тўғрисидаги саволларни бошлайми. > 2

* 2 Бу дорилар учун қанча маблаг сарфланди?

150 000

UZB_HBS_2022H1

(MOK) СОГЛАСИЕ - (4) СОГЛАСИЕ - А. Бергачи ёрдам ва амбулатория хизматларидан фойдаланиш. Русия берсангиз, энди Сиз ва уй-хўжалигингизнинг бошқа аъзоларининг саноатлиги, улар томонидан тиббий хизматлардан фойдаланишнинг қанча тиббий хизматларга харажатлар тўғрисидаги саволларни бошлайми. > 2

* 3 Bозорова Valida сотиб олинган дориларни мунтазам равишда қабул қиладими?

☒ Ҳа
☐ Йўқ

UZB_HBS_2022H1

(MOK) СОГЛАСИЕ - (4) СОГЛАСИЕ - А. Бергачи ёрдам ва амбулатория хизматларидан фойдаланиш. Русия берсангиз, энди Сиз ва уй-хўжалигингизнинг бошқа аъзоларининг саноатлиги, улар томонидан тиббий хизматлардан фойдаланишнинг қанча тиббий хизматларга харажатлар тўғрисидаги саволларни бошлайми. > 2

* 5 Bозорова Valida охириги 30 кун мобайнида тиббий ёрдам бўйича мууроаат қилганими?

☐ Ҳа
☒ Йўқ

C. Sog‘liq muammolari – uy xo‘jaligi a‘zolari sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolari to‘g‘risida so‘raladi. 1-6- savollar faqat 3 yoshdan katta bo‘lgan uy xo‘jaliklari a‘zolari uchun qo‘llaniladi. 7-savol 15 yosh va undan katta yoshdagi shaxslarga tegishli bo‘lib, unda tamaki mahsulotlari chekishi haqida so‘raladi.

5. Bandlik bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Ushbu bo‘lim 4 qismdan iborat:

- A. Ish faoliyati to‘g‘risida;
- B. Ish qidirish;
- C. Kasbi va sohasi;
- D. Tadbirkorlik.

Bandlikning “A” qismida uy xo‘jaligining 16 va undan katta yoshdagi har bir a‘zosining ish faoliyati to‘g‘risida so‘raladi. 1-3 savollari oxirgi 7 kun ichida haq to‘lanadigan ishda ishlaganmi, tadbirkorlik, dehqonchilik yoki boshqa faoliyat, hatto bir soatgina bo‘lsa ham amalga oshirganmi, tadbirkorlik faoliyatida bepul yordam berganligi haqida so‘raladi. Bunda uy xo‘jaligi a‘zosi ishtirokidagi barcha ishlar kiradi: muntazam ishlash, o‘z-o‘zini ish bilan ta‘minlash, vaqtinchalik ish, ya’ni bir yoki bir necha joyda ishlash va buning uchun pul olish.

4 va 5-savolda so‘nggi 7 kun ichida ayrim sabablarga ko‘ra ishlamagan bo‘lsada, lekin o‘zining haq to‘lanadigan ishi yoki tadbirkorlik faoliyatiga egaligi

so‘raladi. Bu ehtimol, ba’zi bir mavsumiy ishlar, vaqtincha ish yoki hozircha bepul ta‘tilga chiqqanlar. Agar javob “Ha” bo‘lsa, bu ishga qachon qaytishini so‘raladi.

Agar 4- savolda javob “Yo‘q” bo‘lsa, demak uy xo‘jaligi a‘zosi ishsiz va 24-savolga o‘tiladi.

6 va 7-savollarda agar uy xo‘jaligi a‘zolari ishi qishloq xo‘jaligi sohasiga tegishli bo‘lsa, ushbu faoliyatdan olingan mahsulotlar qanday maqsad uchun mo‘ljallanganligi so‘raladi.

8-savol. Uy xo‘jaligi a‘zolarining qaysi lavozimda ishlayotganligini bilish kerak bo‘ladi: ish beruvchi, mustaqil ravishda ish bilan band, yollanib ishlovchi yoki uy xo‘jaligida yoki oilaviy biznesda yordamchi (haq olmagan holda).

The image displays four sequential screenshots of a survey application interface, each showing a question and its corresponding radio button options. The interface is in Uzbek and includes a header bar with the text 'UZB_HBS_2022H1'.

- First Screenshot:** Question 1: "1 Buzorov Fatullo oxirgi 7 kun ichida haq tulanadigan ishda ishlagani (bir soat ishlagan bulsa ham)?" Options: ☐ Ha, ☒ Yo'q.
- Second Screenshot:** Question 2: "2 Buzorov Fatullo o'zining 7 kun mobaynida daromad olish uchun tadbirkorlik, dehqonchilik ekin boshqa faoliyatni, hatto bir soatgina bulsa ham amalga oshirdimi?" (masalan, etishtirilgan mahsulotlarni sotish, ishlab chikarish, olib-sotish, pullik xizmatlarni kursatish) Options: ☒ Ha, ☐ Yo'q.
- Third Screenshot:** Question 8: "8 Bu ishda Buzorov Fatullo..." Options: ☐ Ish beruvchi, ☒ Mustaqil ravishda ish bilan band, ☐ Ellanib ishlovchi, ☐ Uy x'jaligida ekin oilaviy biznesda yordamchi (haq olmagan holda), ☐ Boshqa.
- Fourth Screenshot:** Question 9: "9 Bu ish..." Options: ☐ Daimiy, ☒ Mavsumiy, ☐ Daimiy emas, ☐ Vaqtincha.

9-15- savollar ish bilan bog‘liq ma‘lumotlar: davomiyligi, rasmiy yoki norasmiyligi, xodimlar soni, to‘liq yoki yarim ish stavkasi va oxirgi 7 kun ichida necha soat ishlagani haqida so‘raladi.

16-19- savollarda oxirgi marta olgan sof maoshi yoki foyda miqdori, agar hali olmagan bo‘lsa (yangi ish), unda qaysi miqdorda pul olishi kutilishi so‘raladi. So‘ngra qaysi davr uchun olgani, natura shaklida daromad olganligi haqida so‘raladi.

20- savolda oxirgi bir oy davomida asosiy ish faoliyatidan qancha qo‘shimcha maosh/foyda, (konvert yoki boshqa shaklda, davlat organlaridan yashirilgan yoki soliq to‘lanmaydigan maosh/foyda) olganligi haqida so‘raladi.

21-23- savollarda yana boshqa ish faoliyati bormi, olgan oxirgi sof maosh/foyda miqdori, qaysi davr uchun berilganligi so‘raladi.

Bandlikning “B” qismi ish qidirish va bandlik imkoniyatlari bilan bog‘liq 5 ta savoldan iborat.

“C” qismida uy xo‘jaligi a‘zolari qaysi sohada faoliyat yuritishi va kasbi to‘g‘risidagi 3 ta savol mavjud.

“D” qismida esa faqat tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi uy xo‘jaligi a‘zolari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi.

6. Jamg‘armalar va kreditlar bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Mazkur bo‘limning maqsadi uy xo‘jaligi a‘zolarining bankda jamg‘arma mablag‘lari (omonatlar) hisoblari haqida ma’lumot olishdir. Bu bo‘limda faqatgina 18 va undan katta yoshdagi uy xo‘jaligi a‘zolariga nisbatan qo‘llaniladigan 3 ta savol mavjud. Ushbu bo‘limga uy xo‘jaligi a‘zosining bankda jamg‘arma hisobvarag‘iga egaligi, kim bilan hamrohlikda ochilganligi va uy xo‘jaligining qaysi a‘zolari bilan ochilganligi haqida ma’lumotlar so‘raladi.

7. Ijtimoiy nafaqalar bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Ushbu bo‘lim 6 ta savoldan tashkil topgan bo‘lib, unda uy xo‘jaligi a‘zolari qaysi ijtimoiy yordamlarni (pensiya, nafaqa, yordam puli yoki natura shaklida ijtimoiy yordam) qay tarzda va qaysi muddatda olishi hamda nafaqa turlari, qancha vaqt oralig‘ida olib kelayotganligi haqidagi ma’lumotlar so‘raladi.

UZB_HBS_2022H1

(M07) ИJТИМОИЙ НАФАҚАЛАР > (7) ИJТИМОИЙ НАФАҚАЛАР > 1 > ИJТИМОИЙ НАФАҚА > 1

* 3 Azimov Shirin Esh oxirgi marta necha hafta oldin Esh bуйича pensiyani olgan?

Харфалар сон. Бу ҳафта олган бўлса, 0 рақамини киритинг

1

UZB_HBS_2022H1

(M07) ИJТИМОИЙ НАФАҚАЛАР > (7) ИJТИМОИЙ НАФАҚАЛАР > 1 > ИJТИМОИЙ НАФАҚА > 1

* 4 Оlingan Esh буйича пенсия миқдори

720 000

UZB_HBS_2022H1

(M07) ИJТИМОИЙ НАФАҚАЛАР > (7) ИJТИМОИЙ НАФАҚАЛАР > 1 > ИJТИМОИЙ НАФАҚА > 1

* 5 Azimov Shirin Esh буйича пенсияни қанча вақт oralig'ida олади?

☐ Бир марта

☐ Хар ҳафта

☐ Бир ойда 2 марта

☒ Хар ой

☐ Хар уч ойда

☐ Хар олти ойда

☐ Хар йили

☐ Бошқалар

UZB_HBS_2022H1

(M07) ИJТИМОИЙ НАФАҚАЛАР > (7) ИJТИМОИЙ НАФАҚАЛАР > 1 > ИJТИМОИЙ НАФАҚА > 1

* 6 Бу Esh буйича пенсия қанон тугайди ва уни олиш учун қанон ариза билан қайта муножаат қилиш керак?

☒ Хеч қанон (муддатсиз)

☐ 1 ой ичида

☐ 1-3 ой ичида

☐ 3-6 ой ичида

☐ 6-12 ой ичида

☐ 1-2 йил ичида

☐ 2 йилдан сўнг

☐ Бошқалар

Uy xo‘jaligi so‘rovnomasini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Uy xo‘jaliklari so‘rovnomasi (So‘rovnoma) barcha uy xo‘jaligi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni to‘plashdan iborat. So‘rovnomada uy xo‘jaliklar daromadlari, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga, uy-joy kommunal xizmatlariga xarajatlar to‘g‘risida hamda moddiy va ijtimoiy holatini baholash va uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta‘minlanganlik to‘g‘risidagi ma‘lumotlar jamlanadi. Ushbu so‘rovnoma quyida keltirilgan 5- bo‘limdan iborat:

- 8-bo‘lim. Boshqa daromadlar;
- 9-bo‘lim. Oziq-ovqat iste‘moli;
- 10-bo‘lim. Oziq-ovqat xavfsizligi;
- 11-bo‘lim. Nooziq-ovqat iste‘moli va xizmatlarga xarajatlar;
- 12-bo‘lim. Uy-joy kommunal xizmatlari;
- 13-bo‘lim. Noiste‘mol xarakterdagi xarajatlar va to‘lovlar.

8. Boshqa daromadlar bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Ushbu bo‘limda uy xo‘jaligi oxirgi 30 kun mobaynida keltirilgan ro‘yxatdagi daromadlarni olganligi so‘raladi. Har bir manbani respondentga o‘qib berib, javobiga qarab tanlab olinadi, shundan so‘ng olingan daromad hajmi yoziladi.

Kam ta‘minlangan oilalarda, agar shu savolda “Ha” deb javob berilsa, har bir uy xo‘jaligi a‘zosidan so‘raladigan yakka tartibdagi so‘rovnomada ham moddiy yordam “Ha” deb javob berilgan bo‘lishi kerak.

Odatda O‘zbekiston Respublikasiga xorijdan yuboriladigan pul o‘tkazmalari AQSH dollarida qabul qilinadi. Biroq, olingan bu summani o‘zbek so‘miga mahalliy kurs bo‘yicha hisoblab kiritiladi.

9. So‘nggi 7 kun ichida iste‘mol qilingan oziq-ovqat mahsulotlari bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Mazkur bo‘lim so‘rovnomaning eng muhim qismi hisoblanadi. Respondentga har bir oziq-ovqat mahsulotlari (ro‘yxat bo‘yicha 154 ta) nomini

birma-bir o'qib, uy xo'jaligi tomonidan faqat oxirgi 7 kun mobaynida iste'mol qilingan va sotib olingan oziq-ovqat mahsulotlari belgilab chiqiladi. Oziq-ovqat tarkibidagi 15 tadan kam bo'lmagan yoki undan ortiq mahsulotni tanlash lozim. Misol uchun: So'rovnoma o'tkazilayotgan kundan avvalgi 7 kunni hisobga olinadi, agar so'rovnoma 8 iyulda o'tkazilayotgan bo'lsa, 1 iyuldan 7 iyulga qadar, deb ko'rsatiladi.

1-savolda so'nggi 7 kun ichida uy xo'jaligi qanday mahsulotlarni sotib olgani va iste'mol qilgani ro'yxat bo'yicha o'qib chiqib so'raladi va belgilanadi. Shundan so'ng ro'yxatning boshiga qaytib, belgilangan mahsulotlar keyingi savollar bo'yicha to'ldiriladi.

2-ustun savolida oxirgi 7 kun ichida uy xo'jaligi a'zolari tomonidan iste'mol qilingan har bir mahsulotning umumiy miqdori ko'rsatiladi. O'lchov birligi - kilogramm va litrda har bir mahsulot yonida ko'rsatib o'tilgan. Agar respondent o'z javobida kilogramm yoki litrdan boshqa o'lchov birligini aytsa, buni litr yoki kilogrammga o'girish kerak bo'ladi.

3-ustun savolida oxirgi 7 kun mobaynida uy xo'jaligi a'zolari tomonidan sotib olingan mahsulot miqdori va narxi kiritiladi. Agar oxirgi 7 kun ichida hech narsa sotib olinmagan bo'lsa, 0 raqami kiritilib 6-ustundagi savolga o'tiladi.

4-ustun savolida oxirgi 7 kun mobaynida sotib olingan har bir mahsulotdan qancha miqdori iste'mol qilinganligini so'raladi. E'tibor bering, bu miqdor, 3-ustunda ko'rsatilgan sotib olingan miqdordan kam yoki unga teng bo'lishi lozim.

5-ustun savolida oxirgi 7 kun ichida mahsulotning sotib olingan joyi ro'yxat bo'yicha so'raladi.

6-ustun savolida iste'mol qilingan mahsulotlarning qanchasi ro'yxatdagi manbalardan olinganligi haqida so'raladi. Uy xo'jaligi iste'mol qilgan mahsulotlar 7 kun mobaynida sotib olinmagan bo'lishi ham mumkin. Uy xo'jaligi o'z shaxsiy tomorqasida yetishtirgan mahsulotlarni iste'mol qilgan bo'lsa (1-tanlov – Uy xo'jaligida ishlab chiqarilgan), sovg'a yoki yordam sifatida olgan bo'lsa (2-tanlov – Sovg'a olingan, beg'araz yordam), mehnat haqi hisobiga olingan bo'lsa (3-tanlov – Mehnat xaqi hisobiga), o'z omborlarida saqlanayotgan mahsulotlarni iste'mol qilgan bo'lsa (4-tanlov – Zaxiradan olingan), belgilanadi. Har bir mahsulot miqdorini kiritish lozim.

7-ustun savolida 6-ustun savolida to'ldirilgan mahsulotlar narxlari yig'indisini joriy narxlarda o'zbek so'mida baholab ma'lumotlar kiritiladi.

UZB_HBS_2022H1

(9) Сўнгги 7 кун ичида истеъмол қилинган озиқ-овқат маҳсулотлари:

* 1 Сўнгги 7 кун ичида озиқ-овқат маҳсулотлари қандай маҳсулотларни сотиб олди ва истеъмол қилди? (Ҳар бир МАҲСУЛОТНИ УҚИҲ)

Қандай 15 озиқ-овқат маҳсулотини тавлаш керак

☒ 01.1.1.1.01 – Гурuch, гурuch оқшони (кг)

☐ 01.1.1.1.02 – Манний ермаси (кг)

☒ 01.1.1.1.03 – (Речка) (кг)

☐ 01.1.1.1.99 – Бошқа тоифаларга киритилмаган дон экинлари (сўти ермаси, арпа ермаси, оқ ерма, буғдой дони) (кг)

☐ 01.1.1.2.01 – Олий навли буғдой уни (кг)

☒ 01.1.1.2.02 – Биринчи навли буғдой уни (кг)

☐ 01.1.1.2.99 – Бошқа турдаги унлар (жавдар уни, маккажўхори уни) (кг)

☒ 01.1.1.3.01 – Олий навли буғдой унidan тайёрланган нон (обитон, буханка, батон ва ш.к.) (кг)

☐ 01.1.1.3.02 – Биринчи навли буғдой унidan тайёрланган нон (обитон, буханка, батон ва ш.к.) (кг)

☐ 01.1.1.3.06 – Бошқа турли ва навли ундан, жумладан аралаш навли ундан тайёрланган нон (жавдар, маккажўхори унidan тайёрланган нон) (кг)

01.1.1.3.06 – Бошқа турли ва навли ундан, жумладан аралаш навли ундан тайёрланган нон (жавдар, маккажўхори унidan тайёрланган нон) (кг)

1

UZB_HBS_2022H1

(9) Сўнгги 7 кун ичида истеъмол қилинган озиқ-овқат маҳсулотлари:

* 2 Иттимос, охири 7 кун ичида уй ҳўжалигини томонидан истеъмол қилинган 01.1.1.1.01 – Гурuch, гурuch оқшони (кг)нинг умумий миқдорини кўрсатинг.

1

UZB_HBS_2022H1

(9) Сўнгги 7 кун ичида истеъмол қилинган озиқ-овқат маҳсулотлари:

* 3 Охири 7 кун ичида уй ҳўжалигини аъзолари томонидан сотиб олинган 01.1.1.1.01 – Гурuch, гурuch оқшони (кг)нинг умумий миқдорини аниқланг.

1

UZB_HBS_2022H1

(9) Сўнгги 7 кун ичида истеъмол қилинган озиқ-овқат маҳсулотлари:

* 36 Охири 7 кун ичида уй ҳўжалигини аъзолари томонидан сотиб олинган 01.1.1.1.01 – Гурuch, гурuch оқшони (кг)нинг умумий қийматини аниқланг (сўмда).

10 000

UZB_HBS_2022H1

(9) Сўнгги 7 кун ичида истеъмол қилинган озиқ-овқат маҳсулотлари:

* 4 Ушбу сотиб олинган 01.1.1.1.01 – Гурuch, гурuch оқшони (кг)нинг қанчаси истеъмол қилинган?

1

UZB_HBS_2022H1

(9) Сўнгги 7 кун ичида истеъмол қилинган озиқ-овқат маҳсулотлари:

* 6 Бешинчи саволдаги 01.1.4.6.02: Қатик, кефирнинг умумий нархини жорий нархларда баҳоланг (сўмда).

7 000

UZB_HBS_2022H1

(9) Сўнгги 7 кун ичида истеъмол қилинган озиқ-овқат маҳсулотлари:

* 5а Уй ҳўжалигида ишлаб чиқарилган 01.1.4.6.02: Қатик, кефир

1

10. Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Bo‘lim ko‘rsatkichlari hisobot davrida o‘rtacha yoki og‘ir darajada oziq-ovqat xavfsizligini boshdan kechirgan aholining foizini o‘lchaydi. Oziq-ovqat xavfsizligining jiddiyligi, yashirin xarakteristikasi sifatida, FAO tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi shkalasi bo‘yicha o‘lchov standarti bo‘lgan 8 savoldan iborat oziq-ovqat xavfsizligi shkalasi yordamida o‘lchanadi. Har bir savolning asosiy savoliga “Ha” belgilansa, qo‘shimcha savolga o‘tiladi. Asosiy savollarda o‘tgan 12 oy davomidagi ma’lumotlar qamrab olinadi, qo‘shimcha savollarda so‘nggi 4 hafta (30 kun) ichida sodir bo‘lganligi so‘raladi.

1-savolda o‘tgan 12 oy ichida uy xo‘jaligi oila a‘zolari pul yoki boshqa manbalar yetishmasligi sababli ovqat yetishmasligidan xavotir olganligi so‘raladi.

2-savolda pul yetishmasligi sababli sog‘lom hamda to‘yimli ovqatlarni iste’mol qila olmagan holatlar bo‘lganmi so‘raladi va belgilanadi.

3-savolda pul yetishmasligi sababli faqat bir necha, kam turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilgan holatlari so‘raladi va belgilanadi.


4-savolda pul yetishmasligi sababli ovqatlanishni o'tkazib yuborish, nonushta yoki tushlik qilolmagan holatlari bo'lganligi so'raladi.

5-savolda pul yetishmasligi sababli o'ylaganinidan kamroq ovqatlanish holatlari bo'lganligi so'raladi.

6-savolda oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi, tugab qolgan holatlari bo'lganligi so'raladi.

7-savolda och qolaganda ovqat yemagan holatlar bo'lganligi so'raladi.

8- savolda kun bo'yi ovqat yemagan vaqtlar bo'lganmi so'raladi. 7-8-savollarning "a" savolida "Ha" belgilansa, "b" savolida o'tiladi va bu holat qanchalik tez-tez sodir bo'lganligi so'raladi.



11. Nooziq-ovqat mahsulotlarga xarajatlar bo'limini to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar

Ushbu bo'lim 4 qismdan iborat:

- A. Nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlarga xarajatlar;
- B. Uy xo'jaligi uchun 3 oy ichida xarid qilingan nooziq-ovqat mahsulotlar;
- C. Sotib olingan va iste'mol qilingan yoqilg'i turlari;
- D. Kommunal xizmatlariga xarajatlar.

11A. Nooziq-ovqat mahsulotlarga xarajatlar 1-savolda uy xo'jaligi a'zolari tomonidan 30 kun mobaynida ro'yxatdagi mahsulotlardan sotib olgan yoki olmaganligini navbatma-navbat so'raladi va bu savolda qayta ishlash yoki qayta sotish uchun xarid qilingan barcha mahsulotlarni javobdan chiqarib tashlanadi.

2-savolda, agar mahsulot sotib olingan bo'lsa, oxirgi 30 kun ichida har bir tovar yoki xizmatga qilingan xarajatlar qiymati kiritiladi.

UZB_HBS_2022H1

(M10) НООЗИҚ-ОВҚАТ МАХСУЛОТЛАРИ

* 1 Охириги 30 кун ичиди уй хўжалигингиз аъзолари томонидан қуйида санаб ўтилганларга харажат қилинми? (Илтимос, қайта ишлаш ёки қайта сотиш учун ҳарид қилинган бarcha махсулотларни жавобдан чиқариб ташланг)

- ☐ 03.1.2.1.20-Ўғил болалар учун шимлар, джинси шимлар
- ☐ 03.1.2.1.21-Эркаклар учун кўйлақлар
- ☐ 03.1.2.1.22-Ўғил болалар учун сороқчалар, кўйлақлар
- ☐ 03.1.2.1.26-Эркаклар учун майкалар
- ☐ 03.1.2.1.27-Эркаклар учун трусиклар
- ☐ 03.1.2.1.28-Эркаклар учун шортик ва шалварлар
- ☒ 03.1.2.1.29-Эркаклар учун футболкалар
- ☐ 03.1.2.1.30-Эркаклар учун ич кийим комплекти
- ☒ 03.1.2.1.31-Эркаклар пайпоғи
- ☐ 03.1.2.1.32-Ўғил болалар учун майкалар
- ☐ 03.1.2.1.33-Ўғил болалар учун трусиклар
- ☐ 03.1.2.1.34-Ўғил болалар учун футболкалар
- ☐ 03.1.2.1.35-Ўғил болалар учун шортилар
- ☐ 03.1.2.1.36-Ўғил болалар учун ич кийим комплекти

80 000

UZB_HBS_2022H1

(M10) НООЗИҚ-ОВҚАТ МАХСУЛОТЛАРИ > НООЗИҚ-ОВҚАТ МАХСУЛОТЛАРИ НОМИ > 1

* 2 Охириги 30 кун ичиди ушбу 03.1.2.1.29-Эркаклар учун футболкалар учун жами қилинган харажатлар қиймати? Агар аниқ бўлмаса ўртачасини айтинг.

80 000

UZB_HBS_2022H1

(M10) НООЗИҚ-ОВҚАТ МАХСУЛОТЛАРИ > НООЗИҚ-ОВҚАТ МАХСУЛОТЛАРИ НОМИ > 4

* 2 Охириги 30 кун ичиди ушбу 05.6.1.1.04-Кир ювиш кукун учун жами қилинган харажатлар қиймати? Агар аниқ бўлмаса ўртачасини айтинг.

35 000

11B. Uy xo'jaligi uchun 3 oy ichida xarid qilingan nooziq-ovqat mahsulotlar qismining 1-savolida uy xo'jaligi a'zolari tomonidan o'tgan 3 oy mobaynida ro'yxatdagi sanab o'tilgan tovarlar va xizmatlarga xarajat qilgan yoki qilmaganligi so'ralib va bu savolda qayta ishlash yoki qayta sotish uchun xarid qilingan barcha tovarlarni javobdan chiqarib tashlanadi. Har bir tovarni ko'rib chiqib, ro'yxatning boshiga qaytib va birinchi tovarni tasdiqlab, keyingi savollarga o'tiladi.

2-savolda oxirgi 3 oy ichida ushbu tovarlar va xizmatlar uchun qilingan xarajatlar qiymati so'mda kiritiladi.

UZB_HBS_2022H1

(M10) НООЗИҚ-ОВҚАТ МАХСУЛОТЛАРИ

* 3 Охириги 3 ой ичиди уй хўжалигингиз аъзолари томонидан қуйида санаб ўтилганлардан харажат қилинми? (Илтимос, қайта ишлаш ёки қайта сотиш учун ҳарид қилинган бarcha махсулотларни жавобдан чиқариб ташланг)

- ☐ Бензин
- ☐ Шахсий транспорт воситалари учун пропан
- ☒ Шахсий транспорт воситалари учун метан
- ☐ Мотор мойлари, жумладан автол
- ☐ Термоз суюқлиги, уповчи механизм учун суюқлик
- ☐ Совитувчи суюқликлар ва қўшимчалар
- ☐ Шахсий транспорт воситаларини ювиш бўйича хизматлар
- ☐ Шахсий транспорт воситаларига техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш
- ☐ Автомобиль тўхташ жойлари хизматлари
- ☐ Хайдовчиликка тайёрлаш бўйича курслар
- ☐ Шаҳар атрофидида поезлда йўл ҳақи
- ☐ Узоқ масофага катнайдиган поезлда йўл ҳақи
- ☐ Ҳаво транспортида йўловчи ташийш хизматлари

600 000

11C. Sotib olingan va iste'mol qilingan yoqilg'i turlari qismining 1-4-savollarida oxirgi 30 kun ichida uy xo'jaligi tomonidan ovqat tayyorlash uchun 1 dan 13 gacha bo'lgan yoqilg'i turi haqida so'raladi. Barchasini so'rab bo'lgandan so'ng ro'yxatning boshiga qaytib, birinchi tovarni tasdiqlab, 2-savolda sotib olingan yoqilg'ining umumiy narxi kiritiladi. 3-savolda agar yoqilg'ini sovg'a

sifatida olgan bo'lsa birlikda ko'rsatish lozim. 4-savolda o'zi tomonidan sotib olmasdan yig'ilgan yoqilg'i miqdori kiritiladi. Agar uy xo'jaligi 1-2 raqamli yoqilg'i turi (Elektr ta'minoti va Markazlashgan gaz ta'minoti)ni ko'rsatsa, 2 dan 4 gacha bo'lgan savollar so'ralmaydi va 5-savolga o'tiladi.

Agar oxirgi 30 kun ichida yoqilg'i sotib olinmagan bo'lsa, bu holda 0 raqami kiritiladi.

5-8-savollarda oxirgi isitish mavsumida uyini isitish uchun qanday yoqilg'i turidan foydalanganligi so'raladi. Barchasini so'rab bo'lgandan so'ng, ro'yxatning boshiga, tasdiqlangan birinchi tovarga qaytiladi va 6 dan 8 gacha bo'lgan savollarga o'tiladi. Agar xonadon umumiy isitish tizimi, elektr energiya, gaz ta'minoti yoki markazlashgan issiqlik tizimidan foydalangan bo'lsa 6 dan 8 gacha bo'lgan savollar so'ralmaydi.

Foydalanilgan mahsulot turi tasdiqlangan holda (umumiy isitish tizimi, elektr va gazdan tashqari), oxirgi isitish mavsumida isitish uchun sotib olingan yoki yordam tariqasida olingan yoqilg'ining umumiy qiymati va miqdori haqida so'raladi. Agar oxirgi isitish mavsumida yoqilg'i sotib olinmagan bo'lsa, u holda 0 raqami kiritiladi.

The image displays four sequential screenshots of a mobile application interface, likely for reporting energy consumption. Each screen shows a list of energy sources with checkboxes and a numeric keypad at the bottom.

- Screen 1:** Question 1: "Oxirgi 30 kun davomida uy xujaliginizda o'zgat tayirlash uchun quyidagi e'kilgi turi ishlatilganmi?" (In the last 30 days, did you use any of the following types of fuel for heating your home?). Options: ☒ Elektr ta'minoti (Electric supply), ☒ Markazlashgan gaz ta'minoti (Centralized gas supply), ☐ Utin (m3) (Wood), ☐ Kumir va kumir briketlari (kg) (Coal and coal briquettes), ☒ Suyultirilgan gaz (ballon) (l) (Liquefied gas (cylinder)), ☐ Kerosin (l) (Kerosene), ☐ Mазут (l) (Fuel oil), ☐ Dizель (l) (Diesel), ☐ Tezak, tapli (Wood, charcoal), ☐ Makkaжuxori sutasi (Milk), ☐ Fuzalоя (Firewood), ☐ Benzin [transport vositalari uchun benzinini chiqarib tashlani] (Gasoline [for transport vehicles, gasoline is removed]), ☐ Qirindi (Waste).
- Screen 2:** Question 2: "Sotib olingan Suyultirilgan gaz (ballon) (l)ning umumiy narxi qancha?" (What is the total price of the liquefied gas (cylinder) you bought?). Answer: 70000.
- Screen 3:** Question 3: "Suyultirilgan gaz (ballon) (l)ning qancha miqdori qancha sifati olgansiz?" (What quantity and quality of liquefied gas (cylinder) did you buy?). Answer: 0.
- Screen 4:** Question 4: "Qancha miqdorda Suyultirilgan gaz (ballon) (l)ni sotib olmasdan izingiz ingidiz?" (How much liquefied gas (cylinder) did you buy without paying?). Answer: 0.

11D. Xizmatlarga xarajatlar. Uy xo'jaligining xizmatlarga qilingan xarajatlari ro'yxatda keltirilgani bo'yicha foydalanish yoki foydalanmasligi so'raladi. Barchasini so'rab bo'lgandan so'ng, ro'yxatning boshiga, birinchi tasdiqlangan xizmat turiga qaytiladi, 2 dan 6 gacha savollarga o'tiladi.

Tanlangan xizmat turlari to'lovlarini amalga oshirilishida, imtiyozlar yoki qandaydir chegirmalar berilganligi va imtiyozlar foizi haqida so'raladi, agar xizmatlar tekin bo'lsa, 100 % chegirmaga kiritiladi.

4-savolda respondentdan oxirgi xizmat turi uchun amalga oshirilgan to'lov qiymatini, so'ngra 5-savolda ushbu to'lov necha oy uchun amalga oshirilganligi

to'g'risida ma'lumot so'raladi. Agar xizmat turi oylik emas, balki bir martalik bo'lsa, u holda respondentdan o'rtacha to'lov taxminan necha oyga yetishi haqida so'rash lozim.

Agar uy xo'jaligi ijarada tursa, bunday holatda turar joyini 1 oylik ijara haqqi qancha miqdorda bo'lishi so'raladi. Shuningdek, uylarini ijaraga berilsa yoki sotilsa, qancha bo'lishi so'raladi.

12. Uy-joy, kommunal xizmatlari bo'limini to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar

Bu bo'lim 5 qismdan iborat:

- A. Turar joy turi, maydoni va yer uchastkalari;
- B. Markazlashgan isitish tizimi;
- C. Suv tizimi va sanitariya;
- D. Muqobil energiya manbalarining mavjudligi;

E. Uy xo‘jaligining moddiy-ijtimoiy holatini baholash va uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta‘minlanganligi.

12A. Turar joy turi, maydoni va yer uchastkalari qismining 1-4-savollarida turar joy turi haqida so‘raladi. Bular bir oila uchun hovli yoki alohida kvartiralar, qo‘shma hovli uy, yotoqxonalar bo‘lishi mumkin. Undan so‘ng yashash xonalari soni hamda umumiy maydoni (oshxona, balkon va yo‘lakdan tashqari) aniqlanadi. 4-savolda mulk egaligi haqida so‘raladi, agar javob ro‘yxatdagidan boshqacha bo‘lsa, u holda egalik haqidagi ma‘lumotni lotin harflarida kiritiladi.

5-7-savollarda respondentdan ekin maydoni, tomorqasi yoki alohida yer uchastkasi mavjudligi haqida so‘raladi. Agar javob tasdiq tariqasida bo‘lsa (qishloq xo‘jaligida keng uchraydigan holat), u holda o‘sha yerlarning egalik turi, maydoni (tomorqalar uchun sotixda, fermer yerlari uchun gektarda) kiritiladi.

The image displays four sequential screenshots of a mobile application interface, likely for data collection in Uzbek. Each screen has a title bar with 'UZB_HBS_2022H1' and a back arrow. The questions are as follows:

- Screen 1:** Question 1: '1-Йў-жойингиз тури қандай?' (What type of housing do you live in?). Options: Кўп қаватли уй, Коттеж, Алоҳида уй (хусусий ҳовли), Уйнинг, квартиранинг бир қисми, Ётоқхона, Бошқа. The 'Алоҳида уй' option is selected.
- Screen 2:** Question 2: '2-Турар жойингиз умумий майdonи қанча (яшаш хоналари ва ерданчи хоналарни ҳисобга олган ҳолда)?' (What is the total area of your housing in square meters, including living and non-living spaces?). Options range from 40 to 500+ m². The '130 - 199 м²' option is selected.
- Screen 3:** Question 3: '3-Уй неча хонадан иборат? (ошхона, балкон, коридорлардан ташқари) (Билмайман - 99)' (How many rooms does the house consist of, excluding kitchen, balcony, and corridors?). A numeric keypad is shown with the number '3' entered.
- Screen 4:** Question 4: '4-Уй-жойнинг мўлечилик шакли қандай?' (What is the form of ownership?). Options: Шахсий, Шахсий уй-жой ипотека кредити билан, Хусусий шахсдан ижарага олинган, Давлат ижарасидаги уй, Бепул турар жой, Бошқа. The 'Шахсий' option is selected.

12B. Markazlashgan isitish tizimi qismining 1-4-savollarida respondentdan turar joyda markazlashgan isitish tizimi mavjudligi haqida so‘raladi. Agar javob tasdiq tariqasida bo‘lsa, u holda o‘tgan qish mavsumida xonadon necha oy mobaynida isitilgani, uzilishlar bo‘lganligi, uzilish paytida qanday qo‘shimcha isitish manbalaridan foydalanilganligi haqida so‘raladi.

12C. Suv tizimi va sanitariya qismining 1-savolida ichish va taom tayyorlash uchun ichimlik suvi manbasiga qaratilgan. Javoblarni o‘qib chiqib, to‘g‘ri keladigan suv manbasi tanlanadi.

2-savolda agar xonadon suv trubasiga ulanmagan bo‘lsa, respondentdan suv olib kelish uchun qancha vaqt sarflanishi so‘raladi.

3-savolda uy xo‘jaligining qaysi a‘zosi odatda suv olib kelish bilan shug‘ullansa, o‘sha a‘zosining tartib raqami kiritiladi.

4-savol uy xo‘jaligida sovun va suv bilan ta‘minlangan qo‘l yuvish jihozlari (uskunasi) mavjudligi so‘raladi.

5-savol maqsadi uy xo‘jaligining sanitariya darajasini aniqlashdan iborat. Chunki, xojatxonalarning holati kasallikka qarshi kurash va reprodaktiv salomatlik uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Agar respondent umumiy tarzda javob bersa, u holda suv chiqindisi qayerga chiqishi haqida so‘raladi. Shu bilan birga, respondent “Qazilma hojatxona” deb javob bersa, u holda kollektor turiga aniqlik kiritiladi. Quyidagi jadval ta’riflashga yordam tariqasida ko‘rsatilgan.

6-savolda hojatxonadan barcha xonadon a’zolari birday foydalanishi to‘g‘risida so‘raladi.

The image displays four sequential screenshots of a mobile application interface for a survey. Each screenshot shows a question in Uzbek and a list of possible answers or a text input field.

- Screenshot 1:** Question 12 asks about the source of water supply. The options are:
 - Уз водопроводидан
 - Ўз қудуғидан, қўл насосидан
 - Бутилаланган сувдан
 - Умумий водопровод (қўчадаги)
 - Очиқ сув ҳавзаларидан (сой, канал, дарё ва ш.ў.)
 - Келтирилдиган сувдан** (selected)
 - Қўчадаги ёки қўшилларнинг колонкасидан, қудуғидан, қўл насосидан
 - Бошқа
- Screenshot 2:** Question 13 asks about the frequency of water usage. The input field contains '10'.
- Screenshot 3:** Question 14 asks about the conditions of water supply. The options are:
 - Ҳа** (selected)
 - Йўқ
- Screenshot 4:** Question 15 asks about the type of toilet/sewerage. The options are:
 - Марказлашган канализация тизимига уланган оқава
 - Септик ҳажмага (цистерна, бак) уланган оқава
 - Чуқур қавлама** (selected)
 - Бошқа жойга кетадиган оқава
 - Вентиляция қилинган яхшилланган (чуқур қавлама) хожатхона
 - Плиталар билан қопланган (чуқур қавлама) хожатхона
 - Плиталар билан қопланмаган (чуқур қавлама) хожатхона
 - Челак
 - Шаронг йўқ/дала
 - Бошқа

12D. Muqobil energiya manbalarining mavjudligi bo‘yicha so‘rov, uy xo‘jaliklarida muqobil energiya manbalarining mavjudligi va foydalanilishini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Bunda, muqobil energiya manbalari quyidagi turlarga ajratiladi:

dizel generator qurilmasi – bir yoki bir nechta elektr generatorlari bilan jihozlangan ichki yonuvchi dizel dvigatelli energetik qurilma;

quyosh batareyalari – quyosh energiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri doimiy elektr tokiga aylantirib beruvchi, bir necha birlashgan fotoelektrik o‘tkazgichlar (fotoelementlar), yarim o‘tkazgich qurilmalar;

biogaz qurilmasi – organik chiqindilarni qayta ishlash natijasida biogas va organik o‘g‘itlarga aylantiruvchi qurilma.

quyoshda ishlaydigan kollektor qurilmalari – ko‘zga ko‘rinadigan nur va yaqin infraqizil nurlanish yordamida uzatiluvchi quyoshning issiqlik energiyasini yig‘ish uchun mo‘ljallangan qurilmalar (gelioqurilmalar). Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi quyosh batareyalaridan farqli o‘laroq, quyosh kollektori issiqlikni o‘zida saqlovchi materiallarni isitishni amalga oshiradi;

boshqa qurilma – uy xo‘jaligida foydalaniladigan boshqa turdagi muqobil energiya qurilmasi.

Uy xo‘jaligida muqobil elektr energiya manbai mavjud bo‘lgan taqdirda, 1-savoliga mos keluvchi javob variantlaridan biri tanlab ko‘rsatiladi.

Foydalaniladigan qurilmaning bir sutkada o‘rtacha ishlagan soatlari soni mos ravishda

2, 3 hamda 4-savollarida ko‘rsatiladi.

Uy xo‘jaligida muqobil elektroenergiya manbasi mavjud bo‘lmagan taqdirda (1- savoli) 2, 3, 4, 5 va 6-savollari berilmaydi.

Uy xo‘jaligida biogaz qurilmasidan foydalanilsa, bir sutkada biogaz (5) va elektr energiyasini ishlab chiqarish (6) quvvati ko‘rsatib o‘tiladi.

7-savolda uy xo‘jaligida foydalaniladigan isitish vositasi turi ko‘rsatiladi. Isitish vositasi uchun qattiq yoqilg‘idan foydalanilsa, 8-savolda mazkur qattiq yoqilg‘i turi ko‘rsatiladi.

9-savolda uy xo‘jaligida turar joyda foydalaniladigan yorug‘lik lampalari turi va miqdori ko‘rsatiladi.

The image displays four sequential screenshots of a mobile application interface, likely for a household energy survey. Each screenshot shows a question in Uzbek and a list of radio button options.

- Screenshot 1 (Question 17):** Asks about the source of electricity for a specific household. Options include: Diesel generator, Battery, Gas engine, Solar collector, Empty, and Alternative sources.
- Screenshot 2 (Question 23):** Asks about the source of heating. Options include: Centralized heating, Individual boiler, Individual boiler (gas), Individual boiler (electric), Individual boiler (solid fuel), Individual boiler (biomass), Individual boiler (other), and No heating.
- Screenshot 3 (Question 24):** Asks about the source of electricity for a specific household. Options include: Air conditioner, Electric heater, radiator, electric fan, Electric fan, Individual boiler, Individual boiler (gas), Individual boiler (electric), Individual boiler (solid fuel), and No electricity.
- Screenshot 4 (Question 26):** Asks about the type of light bulbs used. Options include: Incandescent, Halogen, LED, and Other.

12E. Uy xo‘jaligining moddiy va ijtimoiy holatini baholash va uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta‘minlanganligi qismining 1-2-savollarida, uy xo‘jaligi a‘zolarining hayotidan qanchalik qoniqishi va qanday ta‘minlanganligi, ijtimoiy holatlaridan qoniqishlarini baholash uchun mo‘ljallangan.

3-savolda, uy xo‘jaligida uzoq muddat foydalaniladigan buyumlarning mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumotlar qayd etiladi. Sotib olinganligi, bevosita uy xo‘jaligi a‘zolari tomonidan tayyorlanganligi yoki sovg‘a tariqasida olinganligidan

qat'iy nazar, kuzatuv o'tkazish davomida uy xo'jaligida mavjud bo'lgan buyumlar soni ko'rsatiladi. Shuningdek, uy xo'jaligi tomonidan qarindoshlar va tanishlarga vaqtincha foydalanish uchun berilgan buyumlar ham hisobga olinib, kiritiladi.

13. Noiste'mol xarakterdagi xarajatlar va to'lovlar bo'limini to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar

G1.1-savoldagi ro'yxatda ko'rsatilgan noiste'mol xarakterdagi xarajatlar va to'lovlar, naqd pul va plastik kartochka orqali bevosita uy xo'jaligi a'zolari tomonidan, shuningdek, ish haqidan ushlab qolish yo'li bilan (ish joyining buxgalteriyasidan) amalga oshirilishi mumkin.

Agar biror-bir to'lovlar, ular uchun qarindoshlar yoki uy xo'jaligi a'zolari bo'lmagan boshqa shaxslar tomonidan to'langan bo'lsa, u holda bu to'lovlar ham ushbu savolda ko'rsatilishi kerak.

G1-savolining 1-satrida, turar joy va noturar joyga xos bo'lgan ko'chmas mulk, yer uchastkasi yoki boshqa qandaydir imorat (bino, xona)larni sotib olish bilan bog'liq xarajatlar ko'rsatiladi.

2-satrd, shaxsiy foydalanish uchun olingan transport vositalaridan (yengil avtomobillar, motosikllar, mopedlar, velosipedlar va h.k.) tashqari barcha turdagi transport vositalarini sotib olish bilan bog'liq xarajatlar ko'rsatiladi. Bunda, agarda yengil avtomobil yoki boshqa shaxsiy foydalaniladigan transport vositasiga xarajatlar "11B. Oxirgi 3 oy ichida xarid qilingan nooziq-ovqat mahsulotlari" bo'limida ko'rsatiladi.

Yirik shoxli qoramollar, otlar, tuyalar, eshaklar, cho'chqalar, qo'ylar, echkilar, quyonlar va boshqa hayvonlar sotib olish uchun xarajatlar 3-satrd, ular uchun ozuqa sotib olishga qilingan xarajatlar mos ravishda 4-satrd ko'rsatiladi.

5-satrda, uy xo'jaligi tomonidan faqat qayta sotish yoki boshqa tijorat faoliyati maqsadida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga qilingan xarajatlar ko'rsatiladi. Agar, uy xo'jaligi ham shaxsiy iste'moli uchun, ham sotish uchun tovar sotib olgan bo'lsa, u holda faqat tijorat maqsadida foydalaniladigan qismi ko'rsatiladi xolos.

Uy xo'jaliklarining qarindoshlar va do'stlar (uy xo'jaligi a'zosi bo'lmagan) uchun beminnat yordam asosida ko'rsatilgan moddiy yordamlarga (sovg'alarni qo'shgan holda) qilgan xarajatlari 9-10-satrlarda ko'rsatiladi, bunda, ular ham pul ham natura shaklida yetkazib berilishi mumkin.

Respondentdan uy xo'jaligi a'zolari tomonidan 11-20-satrlarda ko'rsatilgan xarajatlarga to'lovlarni amalga oshirganligi so'raladi.

Ichki turizm va aholining jismoniy faolligi kuzatuvi so‘rovnomasini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

Bu so‘rovnoma quyidagi 2 ta bo‘limdan iborat:

A. Uy xo‘jaligi a‘zolarining jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi va ular tomonidan turistik safarlarning amalga oshirilishi;

B. Kuzatuv oyida uy xo‘jaligi a‘zolarining O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab qilgan safarlari to‘g‘risida ma‘lumot.

So‘rovnomaning Pasport qismi, uy xo‘jaliklarini tanlash blankasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarga asosan intervyuyer tomonidan to‘ldiriladi.

A. Uy xo‘jaligi tarkibi, uy xo‘jaligi a‘zolarining jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi va ular tomonidan turistik safarlarning amalga oshirilishi bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

A bo‘lim jadvalining ikkinchi ustuniga, uy xo‘jaliklari kuzatuvi so‘rovnomasining 1-jadvalidagi tartibni o‘zgartirmagan holda, uy xo‘jaligining barcha a‘zolarini ko‘chirib yozish kerak.

A bo‘lim jadvalining uchinchi ustuni bo‘yicha savol kuzatuv oyida uy xo‘jaligi a‘zolarining jismoniy faolligini, ya‘ni jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanayotganligini aniqlash uchun ularning barchasiga beriladi. Bunda, jismoniy mashg‘ulotlarga insonning barcha turdagi jismoniy faolligi: ertalabki mashg‘ulotlar, yugurish, sportcha yurish, sakrash, og‘ir narsalarni ko‘tarish, suzish, shuningdek, sheyping, fitnes, gimnastika, yengil va og‘ir atletika, harakatlanish va sport o‘yinlari (futbol, mini futbol, basketbol, voleybol, tennis, stol tennisi, badminton o‘yinlarini qo‘shgan holda), sport turizmi bilan shug‘ullanishlari kirishini nazarda tutish kerak.

Uy xo‘jaligida jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanayotgan shaxslar mavjudligi aniqlangan taqdirda, ushbu shaxs bo‘yicha hafta davomida mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishning takroriyligi (4-ustunda) va har bir mashg‘ulotning davomiyligi (5-ustunda) ko‘rsatiladi.

Uy xo‘jaligi a‘zolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab turistik safarlar amalga oshirilganligini aniqlashdan oldin, intervyuyer A bo‘limiga

tushuntirishlarni o‘qib eshittirgan holda, qaysi safar turistik hisoblanishini respondentga tushuntirishi kerak.

A bo‘limi jadvalining oltinchi ustuni uy xo‘jaligining hamma a‘zolari bo‘yicha to‘ldiriladi, bunda, uy xo‘jaligining har bir a‘zosi tomonidan turistik safar amalga oshirilganligi yoki oshirilmaganligi aniqlashtiriladi va mos javob varianti belgilanadi.

A1 savolida, uy xo‘jaligi a‘zolari tomonidan kuzatuv oyida amalga oshirilgan barcha safarlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ushbu savolda, uy xo‘jaligi barcha a‘zolarining safarlari haqida so‘z yuritilayotganligi uchun, intervyuyer respondentning diqqatini bir joyga jamlashi va o‘ylab ko‘rishi uchun vaqt berishi kerak. A1 savolida, kuzatuv oyidagi turistik safarlarning umumiy soni ko‘rsatiladi, bunda, uy xo‘jaligi a‘zolarining guruh bo‘lib amalga oshirgan safarlarini bitta turistik safar deb hisoblash kerak.

B. Kuzatuv oyida uy xo‘jaligi a‘zolarining O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab qilgan safarlari to‘g‘risida ma‘lumot bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

B bo‘limidagi savollarga javob berishda, O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab amalga oshirilgan oxirgi uchta turistik safar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ko‘rsatish kerak, agar raqam aylana ichiga olinsa, bo‘sh kataklar raqamlar bilan va kvadrat bloklar “x” belgisi bilan to‘ldiriladi.

B1 savolida, turistik safarning asosiy maqsadi ko‘rsatiladi. Har bir safar bo‘yicha faqat bitta javob variantini belgilash kerak.

Turistik safarlarning quyidagi asosiy maqsadlari ajratib ko'rsatiladi:

diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, tabiat bilan bog'liq joylarga tashrif buyurish, sport va madaniy tadbirlarni tomosha qilish, sport bilan (chang'i, otda yurish, golf, tennis, piyoda sayohat qilish, alpinizm va shunga o'xshash) noprofessional tarzda shug'ullanish; havzalar yonida dam olish, suzish basseynlaridan, har qanday dam olish va ko'ngil ochish joylaridan foydalanish, yoshlar va sog'lomlashtirish oromgohlariga, dam olish uylariga borish, davolanish doirasida shug'ullanishni qo'shmagan holda (bu holda asosiy maqsad "davolanish va sog'lomlashtirish tadbiri" hisoblanadi) fitnes bilan shug'ullanish, uy xo'jaligining mulki hisoblangan yoki ijaraga olingan dala hovliga borish va shunga o'xshashlarni o'z ichiga olgan ta'til, hordiq va dam olish;

tanishlar va qarindoshlarnikiga tashrif buyurish, bular oilaviy tadbirlarga (tug'ilgan kun va shunga o'xshash), to'ylarga, dafn marosimlariga, do'stlarnikiga tashriflarni, shuningdek, bemorlar yoki qariyalarni qisqa muddat davomida parvarish qilish va shunga o'xshashlarni o'z ichiga oladi;

ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda qisqa muddatli o'quv kurslariga qatnashish, aniq bir o'quv dasturi (rasmiy yoki norasmiy) asosida ta'lim olish yoki to'lov asosida o'qish, tillarni o'rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ilmiy ta'tillar va shunga o'xshashlarni qo'shgan holda rasmiy o'quv kurslari yordamida aniq ko'nikmalarga ega bo'lishni o'z ichiga olgan ta'lim va kasbiy tayyorgarlik;

shifoxonada, klinikada, shifoxonadan keyingi qo'shimcha davolanish uchun sanatoriyada qisqa muddat davomida davolanish, kurortlar yoki kosmetik jarrohlikni qo'shgan holda tibbiy xizmat ko'rsatuvchi yoki maslahat beruvchi boshqa muassasalarga tashrif buyurishni o'z ichiga olgan davolanish va sog'lomlashtirish tadbirlari. Bir yil va undan ortiq vaqt davomida davolanish muassasasida bo'lishni talab qiladigan uzoq muddat davomida davolanish turizm sohasiga kirmaydi;

diniy marosim va tadbirlarga tashrif buyurish, muqaddas joylarni ziyorat qilish va shunga o'xshashlarni o'z ichiga olgan diniy joylar va ziyoratgohlarga tashriflar;

olib sotish yoki kelgusida ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanish uchun, tovarlar xarid qilishni qo'shmagan holda (bu holda ishga va kasbga oid maqsadlar hisoblanadi), shaxsiy iste'mol yoki sovg'alar uchun iste'mol tovarlari sotib olishni o'z ichiga olgan xaridlarni amalga oshirish;

ko'ngilli asosdagi (haq olmay) ishlarni, ishga joylashish va migratsiya imkoniyatlarini o'rganishni, boshqa maqsadlarga kiritilmagan, haq to'lanmaydigan

vaqtinchalik faoliyatning boshqa turlarini amalga oshirishni o'z ichiga oluvchi boshqa shaxsiy maqsadlar;

kengashlar, konferensiyalar, yarmarkalar va ko'rgazmalarda ishtirok etish, leksiylar o'qish, konsertlar, tomoshalar va spektakl dasturlari bilan chiqish, ilmiy-amaliy yoki fundamental tadqiqotlarda ishtirok etish, turistik safarlar dasturini tuzish, joylashtirish va transport xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzish, professional sport tadbirlarida ishtirok etish va shunga o'xshashlarni o'z ichiga oluvchi, ishga va kasbga oid maqsadlar. Bu maqsadlarga, korxona yoki tashkilotda yollanib ishlash maqsadida amalga oshirilgan safarlar kiritilmaydi.

B2 savolida, har bir safar bo'yicha uy xo'jaligining safarda bo'lgan a'zosi ko'rsatiladi. Bunda, uy xo'jaligi a'zolarining tartib raqami A bo'limining jadvalida ko'rsatilgan tartib raqamiga mos kelishini, tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi bo'ylab turistik safarda bo'lganlar bo'yicha A bo'lim jadvalining oltinchi ustunida "1" javobi ko'rsatilganligini hisobga olish kerak.

B3 savolida, turistik safarning asosiy belgilangan joyi ko'rsatiladi. Bunda, har bir safar bo'yicha faqat bitta javob varianti bo'lishiga e'tibor berish kerak. O'z navbatida, turistik safar uy xo'jaligining doimiy yashab turgan tuman (shahar) hududi bo'ylab, tuman (shahar) tashqarisiga, lekin viloyat hududi bo'ylab yoki viloyat tashqarisiga amalga oshirilgan bo'lishi mumkin.

B4 savolida, doimiy yashash joyidan safarning asosiy belgilangan joyigacha borish uchun bir tomonga bo'lgan taxminiy masofa, kilometrlarda ko'rsatiladi.

B5 savolida, turistik safar davomida foydalanilgan asosiy transport turi ko'rsatiladi, bunda faqat bitta javob varianti belgilanadi. Asosiy transport turi, safar davomida masofaning asosiy qismi qaysi transport turida bosib o'tilganligidan kelib chiqib belgilanadi, masofa bir xil bo'lgan holatda – umumiy transport xarajatlarida ulushi ko'p bo'lgan transport turi ko'rsatiladi.

"Boshqa transport turlari"ga velosipedda, otda yoki tuyada, piyoda yurish va shunga o'xshashlarni kiritish kerak.

B6 savolida, turistik safar davomida tashrif buyurilgan barcha joylarda o'tkazilgan tunab qolishlar soni ko'rsatiladi. Bunda, transportda yo'lda o'tkazilgan tunab qolishlar kiritilmaydi.

Tunab qolishlar nazarda tutilmagan safarlar, safar necha soat davom etishidan qat'iy nazar bir kunlik safarlar deb qoraladi.

B7 savolida, turistik safar davomida tashrif buyurilgan joyda eng ko'p tunab qolishlar o'tkazilgan joy ko'rsatiladi (faqat bitta javob variantini belgilash kerak).

B8 savolidagi ma'lumotlar, respondentdan V9-V21 savollariga javoblar olingandan keyin, intervyuyer tomonidan to'ldiriladi, bunda, turistik safar bilan

bog'liq barcha xarajatlar ming so'mda jamlanadi, ya'ni V9-V21 satrlari bo'yicha xarajatlar yig'indisi V8 satrining yakuniy ma'lumotlariga teng bo'lishi kerak.

B9 savolida, safar bilan bog'liq bo'lgan turli xizmatlar to'plami qiymatini o'z ichiga olgan kompleks safarlarga (turlarga) qilingan xarajatlar ko'rsatiladi.

B10-B21 savollarida, B9 savolida ko'rsatilgandan tashqari barcha xarajatlar, ya'ni tashrif buyuruvchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilgan (ya'ni, turpaketsiz safarga borishda yoki turpaketga qo'shimcha ravishda) xarajatlar ko'rsatiladi.

B11 savolida, ovqatlanish korxonalari xizmatlariga, ya'ni qahvaxonada, restoranda, oshxonada ovqatlanishga to'lov, ofitsiantlar, musiqachilar xizmatlari va shunga o'xshash xizmatlarga xarajatlar ko'rsatiladi.

B12- B13 savollarida, Yo'lovchi tashuvchi havo (avia) transportiga, temir yo'l transportiga qilingan xarajatlar ko'rsatiladi.

B14 savolida, shaxsiy avtotransportga qilingan xarajatlardan tashqari, avtoyo'l, yo'lovchi va boshqa turdagi shahar transportidan foydalanish uchun qilingan xarajatlar ko'rsatiladi. Bu xarajatlarga, avtobusda, yo'nalishli taksida, taksida, metroda, tramvayda, trolleybusda yurish uchun to'lovlar va shunga o'xshash xarajatlar kiradi.

B15 savoli, uy xo'jaligi yoki safarning boshqa ishtirokchilari shaxsiy mulki bo'lgan avtotransportda amalga oshirilgan safarlarga tegishlidir. Bunda, safar davomida uy xo'jaligi a'zolari tomonidan shaxsiy avtotransportga yoqilg'i quyish yoki joriy ta'mirlash uchun qilingan xarajatlar ko'rsatiladi.

B16 savolida, turistik agentliklar xizmatlari va joyni oldindan band qilish bo'yicha boshqa xizmatlarga qilingan xarajatlar, aynan turistik agentliklarning alohida xizmatlarini to'lash uchun qilingan, masalan ekskursiyalar, madaniy va sport tadbirlari, transport bilan ta'minlash, mehmonxonada joyni, chiptalarni oldindan band qilish va shunga o'xshash xarajatlar ko'rsatiladi.

B17 savolida, tomosha tadbirlariga (konsertlar, teatrlar, kino), muzeylarga, hayvonot bog'lariga, botanika bog'lariga tashrif buyurish, shuningdek, tarixiy joylar va tabiiy qo'riqxonalariga safar qilish bilan bog'liq bo'lgan, madaniyat sohasidagi xizmatlarga xarajatlar ko'rsatiladi.

B18 savolida, sport-sog'lomlashtirish tadbirlariga, istirohat bog'lari va shu singari attraksionlar, dam olish maskanlari va shunga o'xshashlarga tashrif buyurish bilan bog'liq bo'lgan sport xizmatlari, dam olish va hordiq chiqarishga qilingan xarajatlar ko'rsatiladi.

B19 savolida, shaxsiy foydalanish uchun va sovg'a sifatida olingan qimmatbaho buyumlar – zargarlik buyumlari, kolleksiya buyumlari, antikvar buyumlar sotib olishga qilingan xarajatlar ko'rsatiladi.

B20 savolida, shaxsiy iste'mol va sovg'a qilish uchun (qimmatbaho buyumlardan tashqari) sotib olingan tovarlarga qilingan xarajatlar ko'rsatiladi.

B21 savolida, safar bilan bog'liq va B9-B20 savollarida aks ettirilmagan boshqa xarajatlar, shu jumladan, tibbiyot muassasalari, ta'lim, sug'urta xizmatlari, shaxsiy foydalanuv uchun mo'ljallangan buyumlarni ta'mirlash, sartaroshxonalar va go'zallik salonlari, boshqa o'ziga xos xususiyatdagi xizmatlarga qilingan xarajatlar ko'rsatiladi.

UZB_HBS_2022H1

(M12) ТУРИЗМ - ТУРИЗМ В > 1

* 6 #1-чи сафарингизнинг асосий мақсади

- ☐ 1.1. Таътил, бўш вақт ва дам олиш
- ☐ 1.2. Қариндошлар ва танишларни кўргани бориш
- ☐ 1.3. Таълим ва касбий тайёргарлик
- ☐ 1.4. Даволаниш ва соғломлаштириш муолажалари
- ☐ 1.5. Диний жойлар ва зиёратгоҳларга ташриф
- ☒ 1.6. Харидларни амалга ошириш
- ☐ 1.7. Бошқа шахсий мақсадлар
- ☐ 2. Ишга доир ва касбий мақсадлар

UZB_HBS_2022H1

(M12) ТУРИЗМ - ТУРИЗМ В > 1

* 7 Уй хўжалиги аъзоларидан қайси бири 1-чи сафарни амалга оширган (мазкур сафарда иштирок этган)

- ☒ Bozorov Fatullo
- ☒ Bozorova Valida
- ☐ Nurov Bexruz
- ☐ Bozorova Madina
- ☐ Fatulloyev Davudjon
- ☐ Baxtiyeva Erkabegim

UZB_HBS_2022H1

(M12) ТУРИЗМ - ТУРИЗМ В > 1

* 8 амалга оширилган 1-чи сафар ҳудудини танланг

- ☒ Туман (шаҳар) ичида
- ☐ Туман (шаҳар)дан ташқарига, лекин вилоят (Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳар) ичида
- ☐ Вилоят (Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳар) дан ташқарига

UZB_HBS_2022H1

(M12) ТУРИЗМ - ТУРИЗМ В > 1

* 9 #1 ташриф (сафар) жойигача бўлган тахминий масофа (бир томонга), км

24

**AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi
va uy xo‘jaligi a‘zolarining AKT vositalaridan foydalanish ko‘lami
so‘rovnomasini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar**

Bu so‘rovnoma quyidagi 3 ta bo‘limdan iborat:

A. Pasport;

B. Uy xo‘jaligida AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi;

C. AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va uy xo‘jaligi a‘zolarining AKT vositalaridan foydalanish ko‘lami.

So‘rovnomaning A bo‘limi pasport qismi, uy xo‘jaliklarini tanlash blankasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarga asosan intervyuyer tomonidan to‘ldiriladi.

**B. Uy xo‘jaligida AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi
bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar**

B bo‘limi, uy xo‘jaligida Internetdan foydalanish imkoniyatining mavjudligi, Internetga ulanish turlari, Internetga ulanish imkoniyati mavjud emasligining sabablari va teleradioko‘rsatuvlarni qabul qilish turlarini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

1- savolda, uy xo‘jaligida qanday qurilmadan (nafaqat kompyuter, balki mobil telefon, planshet kompyuter, o‘yinlar uchun qurilma, raqamli televizor va hokazolardan) foydalanib amalga oshirishdan qat’iy nazar, bir qator aloqa xizmatlariga ulanish imkoniyatini beradigan Internet tarmog‘iga ulanish, shuningdek, elektron pochta, yangiliklar, ko‘ngilochar axborotlar va fayllarni (ma‘lumotlarni) jo‘natish imkoniyati mavjudligi ko‘rsatiladi. Internetga ulanish sim orqali, simsiz, sun’iy yo‘ldosh yoki mobil aloqa yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Bunda, Internetdan uy xo‘jaligining barcha a‘zolari istalgan vaqtda foydalana olsa, uy xo‘jaligida Internetga ulanish imkoniyati mavjud hisoblanadi.

Uy xo‘jaligida Internetga ulanish imkoniyati mavjud bo‘lsa, Internetga ulanish uchun qaysi xizmat turidan foydalanilishi, 2 savolda keltirilgan javob variantlaridan mos javob varianti tanlangan holda ko‘rsatiladi.

2- savolning javob variantlarida quyidagi xizmat turlari keltirilgan:

qayd qilingan (simli) tor yo‘lakli tarmoq – analog modem yordamida bog‘lanish standart telefon liniyasidan oddiy telefon liniyasini raqamli liniyaga aylantiradigan integratsiya xizmati raqamli tarmog‘idan foydalanib, Internetga kirish, shuningdek, 256 kbit/s dan kam bo‘lmagan tezlikda ulanishning boshqa turlari;

qayd qilingan (simli) keng yo‘lakli tarmoq – raqamli abonent liniyasi, kabel modem, yuqori tezlikdagi ajratilgan liniyalar, yashash joyi/binogacha borgan tolali liniya, elektr uzatish liniyalari va boshqa qayd qilingan (simli) keng yo‘lakli aloqa liniyalari kabi texnologiyalar yordamida 256 kbit/s dan kam bo‘lmagan tezlikda Internetga ulanish;

qayd qilingan yer usti (simsiz) keng yo‘lakli tarmoq – tezligi 256 kbit/s dan kam bo‘lmagan WiFi, WiMAX va shu kabi simsiz texnologiyalar yordamida Internetga ulanish. O‘z navbatida, WiFi bu - qurilmalar o‘rtasida ma’lumotlarni qisqa masofaga simsiz uzatish texnologiyasi, WiMAX esa ma’lumotlarni qurilmalarning keng spektri (ish stansiyalari va portativ kompyuterlardan mobil telefongacha) uchun uzoq masofalarga simsiz uzatuvchi aloqa texnologiyasidir;

sun‘iy yo‘ldoshli keng yo‘lakli tarmoq (sun‘iy yo‘ldosh aloqasi orqali) – sun‘iy yo‘ldosh kanali orqali 256 kbit/s dan kam bo‘lmagan tezlikda Internetga ulanish;

portativ qurilmadan foydalaniladigan keng yo‘lakli mobil tarmoq – portativ qurilma (noutbuk, netbuk, planshet, cho‘ntak kompyuteri va sh.o‘.) yoki mobil telefon yordamida mobil aloqa tarmog‘i orqali (kamida 3G) Internetga ulanish;

kompyuterga moslashtirilgan SIM-karta yoki USB modemdan foydalaniladigan keng yo‘lakli mobil tarmoq – karta (masalan, kompyuterga moslashtirilgan SIM-karta) yoki USB modem yordamida mobil aloqa (kamida 3G) tarmog‘i orqali Internetga ulanish.

Ayrim uy xo‘jaliklarida bir vaqtning o‘zida tor yo‘lakli, keng yo‘lakli, qayd qilingan yoki harakatlanuvchi kabi aloqa turlaridan foydalanilishi mumkin, shuning uchun ulanish imkoniyatlarining barcha turlarini ko‘rsatish tavsiya etiladi, ya’ni bittadan ortiq javob variantini tanlash mumkin.

Uy xo‘jaligida Internetga ulanish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, 3-savolida keltirilgan variantlardan Internetga ulanish imkoniyati mavjud emasligining sababi ko‘rsatiladi. 3- savolga javob olish uchun intervyuyer barcha javob variantlarini o‘qib eshittirishi lozim, chunki uy xo‘jaligida Internetga ulanish imkoniyati mavjud emasligining bir qancha sabablari bo‘lishi mumkin.

4-savolda uy xo‘jaligida teleradio ko‘rsatuvlarni qabul qilish turlari ko‘rsatiladi.




4-savolda uy xo'jaligida ulanishning quyidagi turlari keltirilgan:

kabel televideniyesi (KTV) – telepriyomnikda tomosha qilish uchun koaksial kabel orqali taqdim etiladigan ko'p kanalli televideniye dasturlari. Kabel televideniyesida telesignal iste'molchiga o'tkazilgan kabel orqali yuqori chastotali signal yordamida uzatiladi;

sun'iy yo'ldosh televideniyesi (DTH) – sun'iy yo'ldosh antenasi yordamida olinadigan sun'iy yo'ldoshli televizion ko'rsatuvlarni qabul qilishga mo'ljallangan xizmatlar. Sun'iy yo'ldosh televideniyesi texnologiyasi sun'iy yo'ldoshli tyuner bilan jihozlangan telepriyomnikda televizion dasturlarni bevosita qabul qilishga mo'ljallangan;

Internet-protokol televideniyesi (IPTV) – xizmat sifati, qabul qilish sifati, xavfsizlik, interaktivlik va ishonchlilik talablariga javob beradigan, teledasturlar/video/audio/matn/grafik/ ma'lumotlarni tarmoqdan IP protokoli asosida yetkazib berish kabi multimedia xizmatlari. IPTV texnologiyasi televizion kanalni Internet orqali samarali qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, IPTV xizmatlari, odatda, shaxsiy kompyuterda emas, telepriyomnikda tomosha qilish uchun mo'ljallangan;

raqamli yer usti televideniye (DTT) bu – analogli yer usti televideniye texnologik evolyutsiyasi bo'lib, analogli televideniye nisbatan ko'proq kanallarni ko'rsatish imkoniyatini beradi. Raqamli yer usti televideniye texnologiyasi videosignal va ovoz signallarini shifrlash yordamida televizion tasvir va ovozlarni raqamli kanallar orqali uzatishni o'z ichiga oladi.



C. AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va uy xo‘jaligi a‘zolarining AKT vositalaridan foydalanish ko‘lami bo‘limini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlar

C bo‘limi uy xo‘jaligining 10 yosh va undan katta a‘zolarining AKT vositalari, xususan, mobil telefonlar bilan, kompyuterlar bilan, foydalanish joyi va foydalanish maqsadi va shunga o‘xshashlarni hisobga olgan holda Internet bilan ta‘minlanganligi va foydalanish ko‘lamini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

“AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va uy xo‘jaligi a‘zolarining AKT vositalaridan foydalanish ko‘lami” bo‘limi bo‘yicha so‘rov uy xo‘jaligining 10 yosh va undan katta barcha a‘zolari bilan o‘tkaziladi. So‘rovda qatnashuvchi shaxslar ushbu savolnomaning uy xo‘jaligi a‘zolari va ularning yoshi ko‘rsatilgan 1-jadvaldan ko‘chirib yoziladi.

Bunda ushbu bo‘lim bo‘yicha so‘rov uy xo‘jaligi a‘zosining faqat o‘zi bilan o‘tkazilishi kerak. Alohida hollarda, agar respondent intervyu savollariga javob bera olmasa (kasal, juda qari va shunga o‘xshash), u holda uning o‘rniga uy xo‘jaligining boshqa a‘zosi javob berishi mumkin.

1-savolning 1-12 ustunlariga, ushbu savolnomaning 1 jadvalida keltirilgan uy xo‘jaligining 10 yosh va undan katta a‘zolari tartib raqamlari ko‘chirib yoziladi.

2-savolda, uy xo‘jaligi a‘zolarining oxirgi 3 oy davomida mobil (uyali aloqa) telefondan foydalanganligi aniqlanadi. Bu savolda mobil (uyali aloqa) telefon uy xo‘jaligi a‘zolaridan biriga tegishliligi yoki ulardan biri tomonidan mobil (uyali aloqa) xizmatga pul to‘langanligi muhim emas. Chunki mobil (uyali aloqa) telefoni ish joyidan, qarindoshlardan, do‘stlar va sh.o‘. tomonidan foydalanish uchun berilgan bo‘lishi mumkin. Bunga onda-sonda foydalanish, masalan, mobil (uyali aloqa) telefonini bir marta qo‘ng‘iroq qilish uchun olish kirmaydi.

3-savolda shaxsiy mobil (uyali aloqa) telefoni mavjudligi ko‘rsatiladi. Shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun kamida bitta faol SIM-kartasi bo‘lgan mobil (uyali aloqa) qurilmasi mavjud bo‘lsa, ushbu shaxs mobil (uyali aloqa) telefoniga ega hisoblanadi.

Bunga shaxsiy maqsadlarda foydalanish (shaxsiy qo‘ng‘iroqlarni amalga oshirish, Internetga ulanish va h.k.) uchun ish beruvchi tomonidan berilgan mobil (uyali aloqa) telefoni, shuningdek, shaxsiy foydalanuvi uchun mo‘ljallangan, ammo telefon o‘z nomiga rasmiylashtirilmagan, (masalan, mobil (uyali aloqa) telefon ushbu uy xo‘jaligining bir a‘zosi tomonidan boshqa bir a‘zosiga berilgan) shaxslar ham kiritiladi. Faqat faol SIM-karta(lar)ga ega bo‘lgan, ammo mobil (uyali aloqa) telefon apparati mavjud bo‘lmagan shaxslar kiritilmaydi.

4-savolda bir oyda qancha hajmda mobil internet xizmatlaridan foydalanilgani Mb larda ko'rsatiladi. Mobil (uyali aloqa) telefonida bir oylik tarif bo'yicha foydalanilgan Mb lar ko'rsatiladi.

Mobil aloqa tarifiga ko'ra bir oyda necha so'zlashuv daqiqalaridan foydalanilgani daqiqalarda ko'rsatiladi.

Bir oyda qancha SMS xabarlaridan foydalanilgan donalarda ko'rsatiladi.

5-savolda oxirgi 3 oy davomida istalgan joyda kompyuterdan foydalangan shaxslarni aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu holatda kompyuter deganda stolga qo'yiladigan kompyuter, ko'chma kompyuter (noutbuk, netbuk), planshet yoki shunga o'xshash portativ (cho'ntak) kompyuteri tushuniladi. Bu yerga kompyuter imkoniyatlari mavjud bo'lgan ayrim qurilmalar – personal (shaxsiy) raqamli assistentlar (PDA), intellektual TV priyomniklar, shuningdek, asosiy vazifasi telefon aloqasini amalga oshirish bo'lgan qurilmalar kiritilmaydi.

6-savolda oxirgi 3 oy davomida qanday turdagi kompyuterdan foydalanganligi (joyidan qat'iy nazar) bittadan ortiq javob variantini tanlash mumkin bo'ladi, javob variantlarida kompyuterning quyidagi turlari keltirilgan:

stolga qo'yiladigan kompyuter – odatda, bir joyda statsionar holda turadigan va foydalanuvchi kompyuter oldiga, klaviatura yoniga borib joylashadigan kompyuter;

ko'chma kompyuter – o'lchami ko'chirib yurish imkonini beradigan va odatda, stolga qo'yiladigan kompyuter vazifasini bajara oladigan kompyuter. Bunday kompyuterlarga noutbuk va netbuklar kiradi, ammo planshet yoki shunga o'xshash portativ kompyuterlar ushbu toifaga kiritilmaydi;

planshet yoki shunga o'xshash portativ (cho'ntakda olib yuriladigan) kompyuter – bu yassi sensor ekran o'rnatilgan va fizik klaviatura yordamida emas, ekranga tegish orqali boshqariladigan kompyuter.

Respondent 8-savolda oxirgi 3 oy davomida kompyuterdan foydalanmaganligini ko'rsatsa, uy xo'jaligining ushbu a'zosi uchun 9 va 10-savollari berilmaydi (o'tkazib yuboriladi).

7-savolda uy xo'jaligi a'zolarining kompyuterga oid malakaga ega ekanligini aniqlash uchun beriladi. Ushbu savolga javob olishda intervyuyerdan respondent diqqatini bir joyga to'plashga va barcha javob variantlari bilan tanishib chiqishiga e'tibor qaratishi lozim, chunki respondent kompyuterdan foydalanish bo'yicha bir qancha ko'nikmaga ega bo'lgan, ammo oxirgi 3 oy davomida amalga oshirilgan harakatlarni yoddan chiqargan bo'lishi mumkin.

Shuni qayd etish lozimki, 7-savolda bittadan ortiq javob variantini tanlash imkoniyati nazarda tutilgani tufayli javob variantlari respondent amalga oshirishi

mumkin bo'lgan eng oddiy harakatlardan boshlab, murakkab harakatlargacha keltirilgan.

8-savolda uy xo'jaligi a'zolari oxirgi 3 oy davomida haqiqatda Internetdan foydalanganligi aniqlanadi. Bunda mazkur savol bo'yicha ulanish faqat kompyuter orqali emas, shuningdek, mobil (uyali aloqa) telefon, smartfon, planshet kompyuter, personal (shaxsiy) raqamli assistent (PDA), o'yin konsollari, raqamli TV priyomnik va sh.k. yordamida ham ulanish mukinligi nazarda tutiladi.

Respondent 8-savolda oxirgi 3 oy davomida Internetdan foydalanmaganligini ko'rsatsa, 9-savolda foydalanmaganlik sababi ko'rsatiladi va uy xo'jaligining ushbu a'zosi bo'yicha so'rov yakunlanadi.

10-savol uy xo'jaligi a'zolarining oxirgi 3 oy davomida Internetdan foydalanish joylarini aniqlashga mo'ljallangan, o'z navbatida, Internetdan uyda, shuningdek, boshqa joylarda (ishda, o'quv yurtida, boshqa bir shaxsning uyida, Internetga ulanish imkoniyati mavjud bo'lgan jamoat joyida, tijorat markazlarida, harakatlanish yoki harakatda va shu kabi boshqa joylarda) foydalanilgan bo'lishi mumkin.

Bunda, respondent oxirgi 3 oy davomida Internetdan bir nechta joyda foydalangan bo'lsa, barcha foydalanish joylari ko'rsatilishi lozim, chunki ushbu savolda bittadan ortiq javob variantini tanlash mumkin.

11-savolda oxirgi 3 oy davomida istalgan joyda Internetdan foydalangan uy xo'jaligi a'zolarining foydalanish darajasi aniqlanadi. Foydalanish darajasi kunlik (Internetdan kuniga bir va undan ortiq marta foydalanuvchilar uchun), haftada kamida bir marta, lekin har kuni emas yoki haftasiga bir marta bo'lishi mumkin.

Uydan va ishdan tashqarida Internetdan foydalanuvchilar aniqlanganda (8-savolga muvofiq), 12-savolda Internetga ulanish uchun foydalanilgan mobil qurilma turi ko'rsatib o'tilishi lozim, ya'ni bu mobil (uyali aloqa) telefon, smartfon, noutbuk, netbuk, planshet kompyuter va shu kabi qurilma bo'lishi mumkin.

Bunda Internetga ulanish imkoniyatini beruvchi aloqa vositasi turini to'g'ri farqlay olish va ko'rsatish lozim, chunki yuqorida keltirib o'tilgan barcha mobil qurilmalar, Internetga ulanish imkoniyatini mobil (uyali aloqa) tarmog'i yoki boshqa simsiz tarmoqlar (masalan, WiFi va WiMAX) orqali olishi mumkin.

13-savol, uy xo'jaligi a'zolarining oxirgi 3 oy davomida, istalgan joydan Internetdan foydalanish maqsadini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bunda intervyuyer barcha javob variantlarini o'qib eshittirishi lozim, chunki respondent oxirgi 3 oy davomida Internetdan turli maqsadlarda foydalangan bo'lishi mumkin.

The figure consists of four screenshots of a survey application interface, labeled 1 through 4. Each screenshot shows a question in Uzbek, multiple-choice options (Xa, Yuq), and a 'Yildash' (Next) button. The interface is in Uzbek and shows the progress of the survey.

- Скриншот 1 (Question 5):** The question asks about the type of mobile phone used. The options are 'Xa' (Yes) and 'Yuq' (No). The 'Yildash' button is visible.
- Скриншот 2 (Question 7):** The question asks about the type of computer used. The options are 'Xa' (Yes) and 'Yuq' (No). The 'Yildash' button is visible.
- Скриншот 3 (Question 10):** The question asks about the type of internet connection used. The options are 'Xa' (Yes) and 'Yuq' (No). The 'Yildash' button is visible.
- Скриншот 4 (Question 12):** The question asks about the type of internet connection used. The options are 'Xa' (Yes) and 'Yuq' (No). The 'Yildash' button is visible.